



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
21-iyun
juma

№ 25 (4667)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

KASBGA SADOQAT FIDOYILIKKA TUTASHSA...



Jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdek zalvorli vazifalar ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Quvonarlisi, bugungi kunda ichki ishlar tizimida xizmat faoliyatini boshlagan yoshlar ham o'zlarining azm-u shijoati bilan bu sharaflı ishga munosib hissa qo'shishga intilishmoqda.

Xususan, Samarqand viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyonining inspektorlari, safdorlar Umidjon Hamroqulov hamda Sherdor Saidov ayni paytda sohada uzoq yillar faoliyat olib borgan ustozlarining maslahat va yo'l-yo'riqlariga amal qilib, kasbga sadoqatni fidoyilik bilan tutashtirishdek ezgu maqsadni ko'ngliga tukkan yigitlardir.

Muxbirlarimiz xabar qiladi

XORAZM VILOYATI



Yangibozor tumani IIB Probatsiya guruhi hisobida turgan shaxslar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangicha yondashuv asosida olib borish maqsadida «**Shanba — kitobxonlik kuni**» deb belgilanib, shu kuni ular

tuman markaziy kutubxonasida kitob mutolaasi bilan shug'ullanadi. Bunda eng faol kitobxonga alohida ahamiyat berilmoqda va ularning ma'naviy-ma'rifiy bilimlari oshib borilishiga xizmat qilmoqda.

TOSHKENT SHAHRI



IIV Malaka oshirish institutida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan bir guruh professor-o'qituvchilar va xodimlarning farzandlariga fuqarolik va harbiy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga kirish huquqini beruvchi tavsiyanomalarni institut boshlig'i, texnika fanlari

nomzodi, dotsent, polkovnik Olimjon Ahmedov tantanali ravishda topshirdi.

Yig'ilishda so'zga chiqqan ota-onalar va ularning farzandlari yaratib berilayotgan bu kabi imkoniyatlarga munosib bo'lishga va'da berishdi.

NAVOIY VILOYATI



Navoiy viloyati IIBda bo'lib o'tgan tadbirda faol xodimlar qatorida, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan, shuningdek, tan jarohati olgan xodimlarning farzandlariga ham tavsiyanomalar topshirildi.

– Yoshligimdan otamning izidan borib, el-yurt osoyishtaligini

ta'minlash yo'lida xizmat qilishni orzu qilardim, – deydi Uchquduq tumani IIB Tashkiliy bo'limi Navbatchilik qismi katta inspektor navbatchisi, mayor Azizjon Berdiyevning o'g'li Ozodbek Nurpo'latov. – Kelajakda IIV Akademiyasida o'qimoqchiman. Menga tavsiyanoma orqali bildirilgan ishonchni albatta oqlashga va'da beraman.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostida yoshlar sayli va gala-

koncert bo'lib o'tdi.

Bunday tadbirlar Qoraqalpog'istonning boshqa hududlarida ham ko'tarinki ruhda davom etmoqda.

QOROVUL QO'SHINLARIDA



IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7533-harbiy qismda zimmasidagi majburiyatlarni a'lo darajada uddalab, kasbdoshlariga

o'rnak bo'lib kelayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga ham imtiyozli tavsiyanomalarni harbiy qism komandiri,

polkovnik J.Sag'dullayev topshirib, o'qishga kirish va mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarga omad tiladi.

QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyati Yoshlar markazida ichki ishlar organlari otalig'iga olingan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan «Xavfsiz hayot uchun birlashaylik!» shiori ostidagi «Zakovat» intellektual o'yinining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Unda vohaning shahar-tumanlaridagi 3-sektor hududida istiqomat qiluvchi g'oliblikni

qo'lga kiritgan bilimdon yoshlar jamoalari ishtirok etishdi.

Qizg'in va muvofiqlik ruhida o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Qarshi tumanining «Spartak» jamoasi, keyingi o'rinlarni Koson tumanining «Elegant» va Kasbi tumanining «Pozitiv» yoshlaridan iborat jamoalar egallashdi.

Endi g'olib jamoa musobaqaning respublika bosqichida ishtirok etadi.



QO'SHQANOTLAR

MAQSAD ANIQ, ODIMLAR DADIL

Nigora Qayimova 1988-yili Farg'ona viloyati Uch-ko'prik tumanida tug'ilgan. U olti farzandning to'ng'ichi bo'lgani uchunmi, doim singillari va ukasiga g'amxo'rlik qilishga urinardi. Voyaga yetgach, nafaqat o'z yaqinlarini, atrofidagi barcha yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berishni o'ylaydigan bo'ldi. O'zganing dardini o'zinikidek his qiladigan Nigora uchun kasb tanlash qiyin kechmadi, hech ikkilanmay hujjatlarini IIV Akademiya-siga topshirdi.

To'g'ri, avvaliga oilasida, ayniqsa, onasi tomonidan qarshiliklar, ishonchsizliklar bo'ldi. Lekin Nigora ahdda qat'iy turdi, qarindoshlari orasida huquqni muhofaza qiluvchi idoralarda ishlaydiganlar ham borligini, ularga o'xshash niyatida ekanini tushuntirdi. Ona, baribir onada, bolasining kelajagi uchun rozilik bildirdi.

Nigora baxtini o'qishda topdi, kursdoshi Ibrohim bilan oila qurib, Namangan viloya-

ti Kosonsoy tumaniga kelin bo'ldi. Bugungi kunda mayor Ibrohim Sidiqov viloyat IIB JXX YHXB TB Navbatchilik qismida inspektor-navbatchi lavozimida xizmat qiladi. Ular ikki o'g'il va bir qizni tarbiyalab, voyaga yetkazishmoqda.

– Turmush o'rtog'im Nigora bilan o'qish davrida tanishganmiz. 13 yildan beri birga totuvlikda farzandlarini tarbiyalab yashab kelyapmiz. Bir tizimda xizmat qilayotganligimiz sababli



bir-birimizni tushunib, kerakli vaqtda maslahatlashamiz, – deydi Ibrohim.

– Qaynonamdan bir umr minnatdorman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ba'zan bayram kunlari ham ishga borishimga to'g'ri kelganda, xijolat cheksam, «Siz boravering, kelguningizcha o'zim eplab turaman», deydi. Farzandlarimni katta qilishda yordamlashdilar, hozir ham bolalarim buvisi bilan bo'lsa, ko'nglim xotirjam, ishimda unum bo'ladi.

Bugungi muvaffaqiyatlarga erishishimda turmush o'rtog'imning munosib hissasi bor, albatta. U kishining menga bo'lgan mehr-u muhabbati, ishonchi, qo'llab-quv-

vatlashi tufayli shu darajaga erishdim. Hali dilimda niyatlarim, rejalarim ko'p, bariga birgalikda erishamiz.

Podpolkovnik N.Qayimova ayni paytda Namangan viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimida xizmat qilmoqda.

– Vazifamiz jiddiy – oila mustahkamligini saqlash, – deydi podpolkovnik Nigora Qayimova. – Xotin-qizlar masalalari bilan ishlashda mutasaddi tashkilot xodimlari bilan tizimli reja ishlab chiqib, shu asosida ish olib boramiz.

Nigora iste'dod va iqtidorga boy, yangilikka o'ch.

Bo'sh vaqtlarining behuda sarf bo'lishini xohlamaydi, vaqt qadrini biladi. Munchoqdan turli narsalar to'qish unga zavq beradi, charchoqlarini yozadi. Xona gullari parvarishiga alohida e'tibor beradi. Har birining o'ziga xos xususiyatini biladi, bilanlarini boshqalarga ham o'rgatadi. Ba'zi gullar davolovchi bo'lsa, ba'zilarini yetishtirishda ehtiyotkor bo'lish lozimligini tushuntiradi.

Bu hali hammasi emas! Lavhamiz qahramonining hovlisida kichik tomorqa bor. U yerda olma, olxo'ri, xurmo, o'rik, olcha kabi mevali daraxtlar ekilgan. Bir parcha yer ham bo'sh qolmaydi. Oila a'zolari jam bo'lishib kartoshka, ko'katlar, qulupnay ekishadi. Tomorqa o'zi kichik bo'lsa-da, ammo baraka bor.

Bu oila mahallada alohida obro'-e'tiborga ega. Yaqinda «Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi» ko'rik-tanlovida qatnashib, g'oliblikka erishgan. 2024-yil 5 ta muhim tashabbus doirasida o'tkazilgan barcha loyihalarda faol ishtirok etib, tumanda birinchi o'rinni egallagan.

«Hayotdagi shiorim – yuksaklikka intilishdan qo'rqma!», deydi podpolkovnik Nigora Qayimova. Biz ham har ishda chaqqon, fidoyi qahramonimizga yuksak parvozlar tilaymiz.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.



MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

JANGOVAR BIRODARLIK

Andijon shahrida joylashgan IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7553-sonli harbiy qismda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan yoshlar xizmat qiladi. Bu o'zaro do'stona munosabat qurgan katta oiladir.



Namangan viloyati Pop tumanida tug'ilgan Doniyor Qodirov tibbiyot kollejini tugatib, muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, shartnoma asosida xizmatni davom ettirishga qat'iy qaror qildi. Bugungi kunda 3-darajali serjant D. Qodirov alohida vazifalarni bajaruvchi safarbarlik guruhi bosh mutaxassisi – feldsher lavozimida xizmat qilmoqda.

– Xizmat faoliyatim o'zimga juda yoqadi, – deydi Doniyor Qodirov. – Qat'iy harbiy intizom, aniq kun tartibi – bular ayni menbop. Oilam va yaqinlarim men bilan faxrlanishadi. Turmush o'rtog'im Fotima bilan uch yoshli Mustafo ismli o'g'ilni voyaga yetkazypmiz.

Nurshod Bozorov Navoiy viloyatining Nurota tumanida tug'ilgan. 2019-yildan

buyon katta mutaxassis-o'qchi lavozimida xizmat qilmoqda. 3-darajali serjant N. Bozorov bo'sh vaqtlarida og'ir atletika va sharq yakkakurashi bilan astoydil shug'ullanadi.

– Har bir er yigit Vatan himoyachisi bo'lishi kerak, – deydi Nurshod Bozorov. – Xizmat yillari davomida do'stlik, og'ir damlarda safdoshlarning yelkadosh bo'lishi nima ekanligini chuqur anglab yetdim. Ko'p farzandli oilada o'sganman. Ota-onam Mamatqul aka va Matluba opa to'rt o'g'il, bir qizni voyaga yetkazishdi. Ukalarim Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishlaydi.

– Kasb-hunar kollejini tamomlab, ekskavator operatori yordamchisi sifatida faoliyat olib bordim, – deydi

kichik serjant Otabek Qodirov. – Harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, kontrakt bo'yicha xizmatni davom ettirishga qaror qildim. 2018-yilda mazkur harbiy qismga keldim, qisqa muddatli kurslardan so'ng alohida vazifalarni bajaruvchi guruhda pulemyotchi etib tayinlandim. Ota-onam, qarindoshlarim Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida istiqomat qilishadi. Har yili mehnat ta'tili paytida rafiqam Latofat hamda o'g'illarim Akobir va Javohir bilan tug'ilib o'sgan maskanimizga dam olgani boramiz.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Suratda: (o'ngdan chapga) 3-darajali serjantlar Nurshod Bozorov va Doniyor Qodirov, kichik serjant Otabek Qodirov.



Юбилей

ТРУД ВО ИМЯ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права Академии МВД Узбекистана полковник в отставке Рустам Кабулов в эти дни отмечает славный юбилей – 70-летие. Он один из авторитетнейших ученых-правоведов республики.

Его перу принадлежит свыше 500 публикаций, в числе которых фундаментальные монографии, посвященные ключевым вопросам уголовного законодательства, научно-практические комментарии к кодексам, учебники, пособия, статьи. С 1997 года профессор Р. Кабулов являлся членом экспертной комиссии ВАК при Кабинете Министров Узбекистана. Он активно работает в составе спецсоветов по защите диссертаций Академии, Ташкентского государственного юридического университета.

Многие его ученики успешно защитили диссертации и трудятся на ниве науки, внося достойный вклад в ее развитие. Это доктора юридических наук А. Отажонов, М. Каландаров, И. Соттиев и др.

– Так сложилось, что моя научно-педагогическая деятельность и служба непосредственно связаны с Академией с момента окончания с отличием Ташкентской высшей школы МВД, – говорит Рустам ака.

В 1983 году молодому, перспективному сотруднику кафедры старшему лейтенанту Рустаму Кабулову было предложено продолжить обучение в адъюнктуре Московской высшей школы МВД.

– Я, конечно же, согласился, ведь исследовать тонкости юри-



дических проблем под руководством корифеев права было моей заветной мечтой, – продолжает Р. Кабулов. – В 1986 году в Москве досрочно защитил кандидатскую диссертацию.

По возвращении Р. Кабулова назначают старшим преподавателем кафедры уголовного права и процесса. Он активно включился в ее деятельность, работал над обновлением учебно-методических материалов по преподаваемым дисциплинам.

В 1994 году Р. Кабулов был назначен на должность заместителя начальника кафедры, а в 1996 году возглавил ее.

– Было опубликовано более сотни учебников, подготовле-



ны солидные учебники «Уголовное право. Общая часть», «Уголовное право. Особенная часть», «Квалификация преступлений», – рассказывает профессор Р. Кабулов.

Повышению статуса кафедры способствовало и то, что все ее члены активно осуществляли научно-исследовательскую деятельность. В тот период сотрудники защитили ряд диссертаций. В 1997 году под научным руководством профессора У. Таджиханова успешно защитил докторскую диссертацию – сам Рустам Кабулов.

– Важным направлением работы кафедры, – говорит наш собеседник, – было участие в подготовке проектов законов, принимаемых Олий Мажлисом, постановлений Пленумов Верховного суда Республики Узбекистан и их рецен-

зирование. Проекты законов и постановлений Пленума, относящиеся к сфере уголовного права, проходили экспертизу на кафедре. За многие годы работы в Академии она стала для меня родной. И когда после выхода в отставку, в 2012 году, мне предложили продолжить работу здесь же в качестве профессора, я с удовлетворением принял это предложение.

Сегодня полковник в отставке, член Совета ветеранов Академии, профессор Рустам Кабулов, как и всегда, активен. Под его руководством реализуются научные проекты, готовятся предложения по совершенствованию законодательства в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью. Используя передовые образовательные технологии, оригинальные педагогические методики, он вносит весомый вклад в процесс подготовки специалистов для органов внутренних дел.

Достижения Академией успехи – это результат плодотворной деятельности таких людей, как профессор Рустам Кабулов, которые многое сделали для развития образовательного учреждения. Убеждены, что добрые традиции, у истоков которых стоят ветераны образовательного учреждения, будут сохраняться и приумножаться.

Радик ТУМΠΑРОВ,
кандидат педагогических наук.

Становление

МОТИВИРУЯ НА УСПЕХ

В Академии МВД состоялась церемония вручения детям сотрудников рекомендаций для льготного поступления в государственные высшие образовательные учреждения.

В числе тех, кто стал их обладателем, Абдулазизбек Туракулов – сын старшего преподавателя-методиста факультета заочного обучения подполковника Аскара Холова.

«Я горжусь своим отцом и его безупречной 23-летней службой в Академии», – говорит Абдулазизбек,



который сейчас является выпускником лицея при Вестминстерском университете.

Стремясь к успешному поступлению в вуз, Абдулазиз не только продемонстрировал отличную учебу в лицее, но и подтвердил свои знания международными сертификатами: IELTS уровня C1 по английскому языку и SAT по математике.

Отметим, что в нынешнем году обладателями рекомендаций стали 40 детей сотрудников Академии.

Соб. корр.

На снимке: сотрудники Академии с сыновьями на церемонии вручения рекомендаций.



ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

ОҒИР КЕЧГАН ҲАҚИҚАТ ҒАЛАБАСИ

Рўйи замин сайқали Самарқанд шаҳрида туғилган Ислон қонида ижодкорлик уфуриб турганлиги сабаб шаҳардаги тасвирий санъат билим юртида таҳсил олади. Аммо Иккинчи жаҳон уруши унинг ҳаётини бутунлай ўзгартириб юборади. У кўнгилли равишда фронтга отланиб, ҳаракатдаги ҳарбий қисмда хизмат қилади. Урушнинг сўнгги кунларига жангларда қатнашиб, оддий пулемётчиликдан бўлима командири, 24-ўқчи дивизия взвод командири ёрдамчиси даражасигача етди. Шу билан бир қаторда, ўзидаги маҳоратни намоиш этиб, ҳарбий нашрларда муҳбирлик ҳам қилади.



Ислон Сатторов урушдан кейинги йилларда Ички қўшинлар сафида, Узоқ Шарқда, Магадан ва Чукоткада хизмат қилган. Магадан университети фалсафа факультетининг кечки бўлимида таҳсил олиб, кейин хизматни Қозоғистонда давом эттирган. Бир муддат кўп тиражли «Воспитатель», «Трудовой путь» газеталарида муҳаррир ўринбосари бўлган. Изланишдан, илм олишдан тўхтамаган фидойи инсон – Қозоғистон давлат университетининг филология факультетини, сўнгра собиқ иттифоқ Жамоат тартибини сақлаш вазирлиги Олий мактабини ҳам тамомлайди.

Ватан соғинчини қалбида туйган, доим ўз диёрига қайтиш илинжида бўлган И. Сатторов нихоят она юртига қайтиб, собиқ иттифоқ ИИБ Тошкент олий мактаби курс бошлиғи, ўрта махсус милиция мактаби бошлиғининг ўринбосари, ИИБ Маъмурий хизмат бошқармаси бошлиғи лавозимларида сидқидилдан хизмат қилди.

1973 йили Тошкент шаҳар ИИБ бошлиғи лавозимига тайинланган Ислон Сатторов шахсий таркибга шарт-шароит яратиш мақсадида шаҳар ИИБ биносини қайтадан қуриб битказишда бош-қош бўлади.

У раҳбарлик қилган йилларда шаҳардаги криминал-ген вазият анча оғир эди. Вазиятни синчковлик билан ўрганиб, оғир ва ўта оғир

жиноятларни содир этадиган жиноий гуруҳлар пайини қирқишда жиноий гуруҳларга алоқадор шахсларни қўлга олиш операцияларида шахсан қатнашади. Натижада шаҳарда ҳуқуқ-тартибот мустаҳкамланишига, ўта оғир ва оғир турдаги жиноятларнинг камайишига эришилди. Хизматдаги ана шундай ютуқлари туфайли 1975 йил 1 ноябрда унга «генерал-майор» махсус унвони берилди.

Ислон Сатторов янгича услубда ишлайдиган раҳбар бўлиб, ўз даврдан бир қадам олдинда юрарди.

Замондош ҳамкасбларининг эслашича, у ўзаро суҳбатларда, баъзан хизмат кенгашларида ҳам виждонига хилоф иш қилгандан кўра, қотган нон еб, сув ичиб, тирикчилик қилишни маъқул кўришини айтарди. У бошқаларни ҳам шунга чақирар, ишонтира олар, чунки таъсирчан гапира биларди. «Ойнадаги аксингизга диққат билан тикилиб, ўзингиздан ҳалол яшаяпманми, эртага яқинларим, танишларимнинг ҳақли таъна-дашномига қўлмайманми, деб сўраб кўринг», деган гапни доим такрорларди.

Пойтахт милициясига 11 йил раҳбарлик қилган Ислон Сатторов 1984 йили истеъфога чиқди. Пенсияда бўш ўтиришни ўзига эп кўрмаган генерал севимли машғулот – журналистика билан шуғуллана бошлади. Фаолиятини «Электротехник» газетасининг муҳаррирлигида давом эттирди.

Генералнинг ҳаёт саҳифаларидаги сўнгги давр муҳимлиги жиҳатдан олдингиларидан қолишмайди. Ислон Сатторов бу даврда жиддий, шафқатсиз синовдан ўтди. У қонунбузарлик, қўполлик билан тўқнаш келди. Унга озодлигини сақлаш эвазига виждонига қарши боришни таклиф этишди. Бироқ айбисиз айбдорга айланган бўлса ҳам, у ўз қадрини сақлади, ҳақиқат ғалабасига ишончини йўқотмади.

1985 йил 26 августда гдлянчилар томонидан тўқиб чиқарилган сохта айбловлар туфайли у ҳибсга олинади. Уч йиллик ноқонуний терговлар давомида унга нисбатан пора олиш ва бериш айблови қўйилди. Тергов-суриштирув ишлари мобайнида 116 та эпизодлар қалбакилаштирилади. Аммо асоссиз айблов бўлганлиги боис, тергов якунида ишни судга йўналтиришдан олдин терговчиларнинг ўзи дастлаб 70 та, кейин яна 13 та айблов эпизодидан воз кечишга мажбур бўлишган.

– Турмуш ўртоғим ҳибсга олинган, ҳаётимиз «олдинги» ва «кейинги» даврга бўлинди, – дейди Зоя Сатторова. – У киши қўлга олинган кунидеҳ хонадонимизда тинтув ўтказилди ва шу ондан бошлаб доимий қўрқув ҳамда таҳлика ичида яшай бошладик. Эримга пора сифатида берилган нарсалар ва қиммат-



У ақлли одам қиёфасига киришга уринар, мен эса бунинг тамоман акси эканини кўриб турардим.

Терговчилар энди Зоя Бахрамовнанинг иш жойи – Тошкент давлат университети ҳужжатларини титкилашга киришди. Уни кадрлар бўлимига чақиртиришиб сўроқ қилишди. Терговчилар олийгоҳнинг икки мингга яқин штат бирлиги рўйхати қайд этилган катта дафтар-китобни хатчўплар билан белгилаб қўйишган эди. Шу тариқа, фамилияси Сатторов бўлган барча ишчилару таҳсил олувчиларни

тўқиб чиқарилган уйдирма асосида безорилик жиноят иши қўзғатилган. Жиноят иши ноқонуний қўзғатилгани боис, иш судгача етиб бормади. Лекин терговчилар бу ишларнинг барчасини унинг отаси айбини бўйнига олиши учун ўйлаб чиқилган найранглар эди. Улар Тимурни ертўлага қамаш билан қўрқитиб: «У ерда ўтириб отанг билан деворга тақиллатган ҳолда гаплашасан», деб таҳдид қилишган.

Хуллас, сўроқ-саволлар ва тергов жараёнлари тугаб, И. Сатторов барибир қамоқ жазосига маҳкум этилади.

Ҳақиқат эгилади, букилади аммо синмайди. Қаҳрамонимиз 1990 йил 8 июнь кун қамоқдан озод этилади. Шундан сўнг умрининг охирига қадар «Тошкентдан гапирамиз ва кўрсатамиз» газетасида муҳаррир ўринбосари лавозимида ишлади. Халқ депутатлари Тошкент шаҳар ва Олий Кенгаш депутати этиб сайланиб халқ манфаатлари йўлида фидокорона меҳнат қилган. Унинг хизматлари муносиб баҳоланиб, бир неча орден ва медаллар билан ҳам тақдирланган. Лекин ўлим ҳақ. У 1992 йил 30 март кун 68 ёшида бу ҳаётдан кўз юмди.

Ҳа, ички ишлар органлари тарихида генерал-майор Ислон Сатторов каби ўз Ватанини севган, мустамлака даврида ҳар қандай қаршиликларга қарши мардона тура олган ва адолат учун курашганлар кўп бўлган.

Сарвар СОБИРОВ
тайёрлади.

“

Генерал-майор И. Сатторов Тошкент шаҳар ИИБ бошлиғи лавозимида ишлаган йиллар пойтахт ички ишлар органлари тарихида ўзига хос давр сифатида тавсифланади. Бу даврда унинг раҳбарлигида кўплаб ижобий ишлар амалга оширилган. Жумладан, ҳукумат қарорига биноан Тошкент шаҳар ИИБ ва унинг жойлардаги бўлимларига бинолар ҳамда ходимлар учун яшаш уйлари ажратилган. 13 та хизмат уйи ИИБ Ёнғинга қарши кураш бошқармасига 2 та 9 қаватли бино ва 20 та автомобиль берилган. 1977 йил 30 декабрда шаҳар ИИБга 5 қаватли замонавий бино фойдаланишга топширилган.

баҳо буюмларни топширишимни сўрашди. Уларга уйда ҳамма нарсаси ҳалол меҳнат эвазига сотиб олинганини айтдим. Тинтув давомида у кишининг барча орден ва медаллари, шунингдек, фотосуратлари олиб қўйилди. Мени ҳам терговчи Н. Иванов ўтирган хонага сўроққа олиб киришди. Ундан аниқ бирор нарсаси эшитмадим. У Ўзбекистондаги умумий вазият ҳақида қандайдир мавҳум мулоҳазалар юритди. Бир варақ қоғозга чизиклар чизди ва пора бўйича нималарнидир тушунтиришга ҳаракат қилди.

аниқлаб чиқишган. Лекин уларнинг бирортаси Сатторовнинг қариндоши эмас ва фарзандлари ҳам бу ерда ўқимас эди. Уларнинг фарзандлари Тошкентда эмас, Москва электротехника алоқа институтида таҳсил оларди.

Яна бир ҳолат университет партия қўмитасининг техник котиби З. Сатторовага қўнғироқ қилиб, шаҳар қўмитасидан эри билан ажрашгани ҳақида аноним хабар келганини маълум қилишган.

Гдлянчилар томонидан И. Сатторовнинг ўғли Тимурга нисбатан ҳам қандайдир





Фоторепортаж

ШАГ ЗА ШАГОМ К ЦЕЛИ

Академические лицеи МВД Республики Узбекистан выпустили своих воспитанников. На днях состоялись церемонии вручения дипломов выпускникам.

■ Нукус



■ Самарканд



■ Андижан



В этом году Нукусский военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» Министерства внутренних дел Узбекистана окончили более 100 ребят.

www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.facebook.com/postdauzwww.instagram.com/postda_uz

Tuman IIBda

BARCHASI ODAMLAR ROZILIGI UCHUN

Koson tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala, Muborak, Qarshi, Kasbi tumanlari va Qarshi shahri, Samarqand viloyatining Nurobod tumani bilan chegaradosh. Maydoni 1,88 ming km², aholisi 304 mingdan ortiq. Markazi – Koson shahri. Tuman hududida 75 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Hududi asosan pasttekislik, adir va qir-cho'llardan iborat tumanda qishloq xo'jaligi barobarida, ishlab chiqarish sohasi ham birmuncha rivojlangan.

KOSON TUMANI

XU
SH
KELI
BSIZ

INSON QADRI



Tuman 3-sektori hududi-da joylashgan mahallalardagi qariyb 13 mingta xonadonda 93 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi.

Hudud infratuzilmasini yaxshilash va aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida joriy yilda 28,5 km tuproq yo'llarga shag'al yotqizilib, 3 ta yangi transformator, 67 ta beton ustun o'rnatilib, 1200 metr uzunlikda elektr sim tortildi.

Sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i, polkovnik Ilhom Qutlimuratov tomonidan joriy yilning dastlabki 5 oyi davomida joylarda o'tkazilgan sayyor qabullarda fuqarolar bildirgan 310 ta murojaatning 284 tasi ijobiy hal etildi. Ayrim murojaatlar bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berilgan bo'lsa,

o'rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar ijrosi qat'iy nazoratga olindi.

– «Chiroqchi» mahallasi-da yashovchi fuqaro Feruza Abdalimova sektor rahbariga murojaat qilib, o'z uyida tikuvchilik bilan shug'ullanib kelayotganini, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun yangi tikuv mashinalariga ehtiyoji borligini ma'lum qildi, – deydi tuman IIB HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori, kapitan Mirjalol Davlatov. – Sektor rahbarining bevosita ko'magi bilan fuqaroga imtiyozli kredit mablag'i hamda mahalladagi 1-sonli IIBdan alohida xona ajratildi. Ushbu mablag'ga 10 ta zamonaviy tikuv mashinasi sotib olingach, ayol mahalladoshlarini ham ish bilan ta'minladi.

AYOL VA JAMIYAT

...Ahil-inoq, kam-ko'stsiz yashab kelayotgan oilaga ko'z tegdi. Hech kutilmaganda er-xotin o'rtasidagi munosabat sovuqlashdi. Arzimas sabab tufayli boshlangan kelishmovchilik doimiy urish-janjallarga aylandi. Ota-onalar, yaqinlarning o'g'itlari, mahalla faollarining aralashuvi ham kutilgan natijani bermadi. Oila atalmish qo'rg'on buzilish yoqasiga kelib qoldi.

Durdona(ism o'zgartirildi)-ga himoya orderi beriladigan bo'ldi.

– Bu harakatimiz ko'p o'tmay o'z samarasini ko'rsatdi. Er-xotin o'rtasidagi tushunmovchilik barham topdi. Hozir bu oila

tinch-totuv yashayapti. Eng muhimi, ikki norasida ota-ona bag'rida ulg'aymoqda, – deydi podpolkovnik Feruza Chorshanbiyeva.

Podpolkovnik F.Chorshanbiyeva 2011-yilda IIV Akademiyasini tamomlagan. 2012-yili tuman IIBda, voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor bo'lib xizmat faoliyatini boshlagan. 2019-yildan buyon hozirgi lavozimida

faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U xotin-qizlarni qiynab kelayotgan muammolarni o'rganib, bartaraf etishni, joylarda o'tkaziladigan profilaktik tadbirlar salmog'i va ta'sirchanligini oshirishni faoliyatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan.



Bundan xabar topgan tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Feruza Chorshanbiyeva darhol «Yuqori Obron» MFYdagi ushbu xonadonga yo'l oldi.

Mahalla xotin-qizlar faoli, hududiy profilaktika

inspektori va ota-onalar qatnashgan profilaktik suhbat naq to'rt soatga cho'zildi, er-xotonga voyaga yetmagan ikki nafar farzandning taqdirini o'ylashlari lozimligi, oilaviy ajralishlarning og'ir oqibatlari hayotiy misollar orqali tushuntirildi. Nihoyada esa

PROBATSIYA

Tuman IIB JXX probatsiya guruhi inspektori, mayor Elbek Eshonqulovning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda probatsiya hisobida 652 nafar mahkum bor. Ularning 217 nafariga axloq tuzatish ishlari jazosi, 120 nafariga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan, 82 nafari muayyan huquqdan mahrum qilinganlar. Shuningdek, 226 nafar mahkum muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan shaxslar hisoblanadi.

Ishsizlik, bekorchilik – jinoyatchilikning «doya»si. Shu bois nazoratdagi shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha tuman hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Xususan, hozirga qadar 7 marta «Ishga marhamat» tadbirlari o'tkazildi. Buning natijasida



22 nafar mahkum ishga joylashdi. Bundan tashqari, probatsiya hisobidagi 5 nafar yosh monomarkazda qayta kasbga o'qitildi. «Yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari» o'quv dasturi doirasida esa 101 nafar nazoratdagi yigit-qiz o'quv yig'inlariga jalb etildi.

Olib borilayotgan ishlar natijasida shu yilning o'tgan davrida 81 nafar nazoratdagi shaxs qonun-qoidalarga amal qilib, o'ziga tegishli xulosa chiqargani, ijobiy tomonga o'zgargani uchun tayinlangan jazolardan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingani so'zimiz tasdig'idir.

Kamol OLLOYOROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent – Koson – Toshkent.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

TARIX – VATANPARVARLIK, MILLIY G'URUR VA IFTIXOR MANBAYI

O'z o'tmishi, tarixini bilmagan xalqning kelajagi yo'q, deyilar. Shunday ekan, har birimiz keng qamrovli Vatanimiz tarixi bilan birgalikda yashayotgan hududimiz – qishlog'imiz tarixi, bobo va momolarimiz haqida ozu-ko'p bilishimiz zarur.

Tarixni kim yaratadi? Albat, siz va biz. Ammo uni faqat tillarda emas, balki kelajak avlod uchun yozma holda qoldirish zarur. Buning uchun esa harakat va yetarli ma'lumotlar kerak...

Amir Temur va temuriylar saltanati dunyo tamaddunida o'chmas iz qoldirgan. Shu sababdan ham temuriylarning zafarli yurishlari, ilm-fan ahliga ko'rsatilgan e'tibor va tarix zarvarqlaridan joy olgan boshqa olamshumul voqealar hamon muhokama etiladi.

Mustaqillik bizga tariximizni xolis va haqqoniy idrok etish, nomlari unutilishga mahkum etilgan ajdodlarimiz haqida to'laonli bilish imkoniyatini qaytardi. Mana shu imkoniyat tufayli tariximizning noma'lum sahifalari va qatag'on etilgan bobolarimizga bag'ishlab asarlar yozishga keng yo'l ochildi.

Bergan imkoniyatlardan faqat iste'dodli va fidoyi olim-u adiblar-gina emas, butun «ilmiy-ijodiy faoliyati» davomida ulug' mutafakkirlarimizni, shu jumladan, Amir Temur va temuriylarni qoralab, ularga qarshi kurashib kelgan olimlik da'vosidagi kimsalar ham unumli foydalandi va foydalanishmoqda.

Har birimizning aziz Vatanimizga mehrimiz cheksiz. Shu buyuk mehr bizni jonajon yurtimizni asrab-avaylashga, hamjihat va ahil yashashga, yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanishga undab turadi. Prezident ta'kidlaganidek, «eng muhimi, bugun xalqimiz dunyoqarashi o'zgargan, ezgu maqsadlarga erishishga katta ishonchi shakllangan. Demak, Taraqqiyot strategiyamizda ko'zlangan maqsadlar va undan keyingi qutlug' marralarni zabt etishimizga hech kimda shubha yo'q».

Albatta, hech bir xalq o'zligini anglagan holda, milliy madaniyati va qadriyatlarini asrab-avaylamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Yangi O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur» «milliy vatanparvarlik» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, albatta.

Zotan, g'ururimiz, Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbat «Inson qadri uchun» tamoyiliga asoslanadi. Prezidentimiz iborasi bilan



aytganda, «milliy qadriyatlarimizda alohida o'rin tutadigan avlodlar o'rtasidagi an'analar davomiyligini saqlash, urush va mehnat faxriylarining, muhtaram otaxon va onaxonlarimizning hayotini yanada mazmunli qilish nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizga aylanmoqda. Shuningdek, biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda azm-u shijoatli yoshlarimizni xalqimizning chinakam tayan-chi va suyan-chi, deb bilamiz».



Biz o'z tariximizda hech qachon hech kimga hasad, yovuz niyat bilan qaramaganmiz va boshqalardan ham shuni talab qilishga haqlimiz. Lekin bu borada ham bizga qarshi qaratilgan ma'naviy va mafkuraviy tahdidlar davom etmoqda. Mafkura sohasida yurt ravnaqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'naviy tajovuz – bu o'zbek millati tarixini soxtalashtirish, turli xil g'ayriilmiy talqin-

xalqimiz ozodligi va istiqlo-lini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi vatandoshlarni yodga olmoq, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatmoqdir. Shu sabab ham ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani istiqlo-l yillarida o'zining haqiqiy vazifasini ado etishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi.

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'qligi, tarix millat uchun ruhiy oziq ekanligi, ayni haqiqat. Shu bois haqqoniy tarixni tiklash, uning rivoji uchun barcha zaruriy shart-sharoit, imkoniyatlar yaratildi. Kun tartibiga haqqoniy tarixni birlamchi manbalar asosida yaratish, uni xolisona talqin etish, bahs-munozaralar asosida tarixiy haqiqatni tiklash vazifasi qo'yildi. Tarix va hozirgi zamon voqeliklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va sodir bo'layotgan jara-yonlarni xolisona baholay olish qobiliyatini talab etadi. Qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish – tarix va o'tmishdan voz kechish degani emas. Kechagi hayotdan, tarixdan hech qachon voz kechib bo'lmaydi. Tarix qanday bo'lmasin, biz

uchun hayotdan saboq va xulosalar chiqarish uchun xizmat qiladi.

Tarixini, o'zligini anglab yetgan, qalbiga quloq solgan har bir inson o'ziga, men bu foni dunyoda nima ish qildim, yana qanday ishlar qilishga vaqtim va qurbim yetadi, degan savolni berishi kerak. Ana shu savol inson qalbini tozalaydi, uni savobli, ezgu ishlarga chorlaydi. Xullas, ma'naviyatda insonning imon-e'tiqodi, axloqi, tarix, hayot ma'nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan, tarix, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir.

Ma'naviy barkamol inson – o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi. Tarixiy qadriyatlarga, ularni elga qaytarish, tanitishga bo'lgan sa'y-harakatlardan ko'zda tutilgan maqsad shuki, har bir inson o'z umrini tabaruk zotlar kechirgan hayot bilan taqqoslash, ko'nglidan men ana shu salafimizga munosib vorismanmi, degan savol o'tsin. Ular shu qadar buyuk meros qoldiribdi, mendan nima qoladi, degan tuyg'u bilan o'z faoliyatini baholasin. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, aynan yuqoridagi sabablarga ko'ra, tarixni bilish va qadrlash milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviyat yuksalishi bilan uzviy bog'liq masala hisoblanadi.

Sarvar SOBIROV
tayyorladi.

Ular xonadonlarni chaqirish maqsadida eshik qo'ng'irog'ini bosishadi. Bu eshik qo'ng'irog'ida chalinadigan kuy. Qayta-qayta chalinadigan kuy.



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

QALDIRG'OCHLAR QANOT QOQMOQDA

Joriy yilda poytaxtimiz va viloyatlarda joylashgan IIV akademik litseylarini yuz-ko'zlarida shijoat porlagan, bilim ufqi keng bir guruh yoshlar tamomladi. Joylarda bitiruvchilarga jamoat tashkiloti vakillari, ota-onalar va faxriylar ishtirokida diplom topshirish marosimlari bo'lib o'tdi.

Bu yoshlar – mamlakatimiz kelajagi, yurtimiz istiqboli. Diyorimizda o'sib kelayotgan avlodni yetuk inson etib tarbiyalash,

ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishdek ezgu ishga alohida e'tibor qaratilayotgani ularning intilishlariga qanot bo'ladi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, ular ertaga O'zbekistonni yanada kuchli, rivojlangan va baxtli davlatga aylantirish uchun o'zlarining bor bilimi, iqtidori va kuch-g'ayratini safarbar qilsa, ko'zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Toshkent



Namangan



Sirdaryo



Navoiy



Farg'ona



Qashqadaryo



Jizzax



SALOMATLIK BEKALARI

UMR MAZMUNI

Huquq-tartibot organlari xodimlarining ruhan tetik, jismonan sog'lom bo'lishi ularning xizmat vazifasini, el-yurt oldidagi burchini mukammal va a'lo darajada ado etishini kafolatlaydi.



IIV Namangan gospi-talining 160 nafarlik jamoasi ham shunday ezgu ishga kamarbasta. Gospi-taldagi vrachlar, o'rta tibbiyot xodimlari, kichik hamshiralalar hamda tozalik va ozodalikka mas'ul farroshlargacha hamisha, har lahza buni qalban his etib turishadi.

Fizioterapiya bo'limi xo'jalik bekasi Halima O'ljaboyeva ham faoliyatini mazkur dargoh bilan bog'lagan. Halima opa asli qirg'izistonlik, 1969-yili Kerben shahrida tug'ilgan. 1984-yilda maktabning 8-sinfini tamomlagach, Kosonsoydagi qurilish texnikumiga o'qishga kiradi.

1991-yilda Namanganning so'lim va betakror tumanlaridan bo'lgan Chortoqning tog'larga tutash Hazratishoh qishlog'iga kelin bo'lgan Halima O'ljaboyeva 1994-yili IIV Gospi-taliga ishga kiradi.

Halima opaning uch nafar qiz farzandi bor. Katta qizi Zarina Hamidova ham shu erda sanitar lavozimida ishlab kelmoqda.

– Dargohimiz har bir xodimdan o'ziga yarasha mas'uliyat, o'z ishiga talabchanlik va sidqidildan yondashishni taqozo etadi, – deydi gospi-tal boshlig'i mayor Isroiljon Abdullayev. – Halima opa jamoada barchaga o'rnak va ibrat, ko'p yillik tajribaga ega fidoyi xodimlardan.

Sarishtalik, tozalik va ozodalik xo'jalik bekasi faoliyatining asosi. U qanchalik mas'uliyatni his qilsa va ishga sidqidildan yondashsa, sanitar xodimlar ham undan o'rnak oladi. Halima opa ana shu fazilatlar sohibasi bo'lgani uchun ham jamoada qadr-qimmat, ardoq topgan.

– Har tong ishga – qadrdon jamoasiga, har oqshom esa uyiga, oilasi bag'riga oshiqqan inson chinakam baxtlidir, degan hikmat bor, – deydi Halima O'ljaboyeva. – Umr mazmunini ana shu hikmatda deb bilaman. Har tong ostona hatlab kirib borarkanman, sokinlik, osudalik bilan bezangan maskan shuurimni shavqqa to'ldiradi. 30 yillik faoliyatim shu dargohda o'tgani menga mamnunlik, shuning barobarida, faxr va iftixor bag'ishlaydi.

Darhaqiqat, kasbni ardoqlash, undan iftixor tuyish asl saodatmandlik.

Isroil YUSUPOV,
jurnalist.

SOHAVIY XIZMATLARDA



BOLANING BEGONASI BO'LMAYDI

Jizzax viloyati IIB JXX HPB voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida bo'lganimizda, farzandini muassasadan olib ketish uchun kelgan ona hujjatlarni rasmiylashtirayotgan ichki ishlar organi xodimiga o'z noroziligini bildirayotganiga guvoh bo'ldik.

Muassasa vakili «Farzandingiz kechasi taxminan soat 3:30 larda «Kimyogar» mahallasida yurgan ekan, bu vaqtda voyaga yetmagan shaxs ota-onaga yoki vasiysiz yurishi mumkin emas, uni nazorat qilish burchingiz hisoblana-di, yomonlar ta'siriga tushib qolsa, nima qilasiz?» – deya yotig'i bilan tushuntirishga harakat qilardi. Ayol esa «Niyatingiz buncha sovuq», deganicha o'zining haqligini isbotlamogga urinardi...

Qarovsiz va nazoratsiz qoldirilgan voyaga yetmaganlar saqlanadigan markazda shunga o'xshash voqealar bo'lib turadi. Ayrimlar farzandini

e'tiborsiz qoldirgani uchun xijolat tortsa, ba'zilar masalaga «Bola meniki, uni qanday tarbiyalashni o'zim bilaman» qabilida yondashadi. Muassasa xodimlari uchun esa yagona tamoyil mavjud: «Bolaning begonasi bo'lmaydi».

Ta'kidlash kerakki, muassasaga keltirilganlar uchun barcha sharoitlar mavjud. Birinchi navbatda, ular ko'rikdan o'tkazilib, tibbiy, psixologik va huquqiy ko'mak ko'rsatiladi. Muassasada bolalar kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta'minlanadi.

Ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, xususan, ta'lim olishi uchun tig'iz kun

tartibi joriy qilingan. Voyaga yetmaganlar markazda 48 soatdan 45 kungacha qolishi mumkin. Bu davrda ularning oilasi o'rganilib, yaqinlariga topshirish choralari ko'rildi. Yana bir ma'lumot: joriy yilning o'tgan davrida 25 o'rinli mazkur markazga nazoratsiz yurgan 222 nafar voyaga yetmagan keltirilgan. Ulardan 204 nafari oilasi yoki vasiylarga topshirilib, bir qismi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.



Xorazm viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni tumanlararo otryadi inspektori, safdor O'g'iloy Abdullayeva xizmat paytida.



QORAKO'L OSOYISHTALIGI YO'LIDA

Viloyatning olis hududlaridan biri bo'lgan Qorako'lida 170 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. So'nggi yillarda sanoatlashtirish borasida ham rivojlanishlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayniqsa, yaqinda Prezidentimizning viloyatga tashrifi arafasida «Qorako'l» erkin iqtisodiy zonasida «Enpipe» korxonasi ishga tushirilgani, qolaversa, metanoldan olefin olish texnologiyasi asosida gaz-kimyo kompleksini qurish va texnologik klasteri tashkil etish loyihasi amalga oshiriladigan bo'ldi. Kelgusida ana shu korxonada ikki mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratiladi. Nafaqat qorako'lliklar, viloyat aholisi, balki respublikamizdan ham ishchilar qabul qilinadi. Demak, osoyishtalik posbonlariga mas'uliyat yana bir karra oshadi.

Joriy yilning o'tgan oylarida soha xodimlari tuman hududida o'tkazgan tadbirlar davomida bir qator huquqbuzarlik holatlari va jinoyatlar fosh etildi. Masalan, «Qoradori – 2024» tezkor-profilaktik tadbirida «Qorako'l» mahallasida yashovchi X.Sh.ning o'z tomorqasida 3 tup ko'knor va kannabis o'simligini yetishtirayotganligi aniqlandi. Shuningdek, «Chekirchi» mahallasida istiqomat qilayotgan R.Sh.ning tomorqasi ko'zdan kechirilganda, 2 tup kannabis o'simligini parvarishlab kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Ikkala holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Mazkur jinoyatlar profilaktika inspektorlari, **mayor S.Sharipov, katta leytenant J. Umarov**larning sa'y-harakatlari bilan fosh etildi.

Tumanda 50 ta mahalla fuqarolar yig'ini bo'lib, undagi mahalla faollari bilan birgalikda olib borayotgan sa'y-harakatlar natijasida joriy yilning



o'tgan besh oyi davomida 36 ta mahallada umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Shu bois ham «yashil» toifada turibdi. 10 tasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan jinoyatchilik sezilarli ravishda kamayganligi sababli «sariq» toifaga o'tkazilgan. Afsuski,

qolgan 4 ta mahalla «qizil» toifada. Sodir etilgan jinoyatlar mahallalarda o'z vaqtida muhokama qilinib, kelib chiqish sabablari chuqur tahlil etilmoqda.

Viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi Navbatchilik qismi negizida tashkil etilgan «102» xizmatiga berilayotgan xabarlar yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rilayotgani bois mazkur xizmatga nisbatan fuqarolarning ishonchi tobora ortib, bu boradigi o'zaro hamkorlik mustahkamlanmoqda. Joriy yilning o'tgan besh oyi davomida bosqinchilik, talonchilik, o'lim bilan bog'liq YTH, oilaviy zo'ravonlik, bezorilik kabi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Firibgarlik jinoyati kamaydi, tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlar esa barqaror holatda qoldi. Xodimlarning sa'y-harakati bilan 10 nafar qidiruvdagi shaxs ushlandi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

TARIXDAN TARIQCHA

Qorako'lni tarixda Paykent, Baykand va Qorako'l deb ham atashgan. Bir necha ming yillik «Zamon bobo» madaniyati ham Paykentda joylashgan. Paykent islom dini kirib kelishidan oldin turk xoqonliklari davrida saltanat markazlaridan bo'lgan. Arab tilida «p» harfi mavjud bo'lmagani uchun uni arab manbalarida «Baykand» deb atay boshlashgan. X asrda yashab ijod qilgan tarixnavis olim Narshaxiy Paykent haqida quyidagicha yozadi: Baykant (Paykant) – buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar...

Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o'z davrida Baykantni qayta qurishga buyurdi, ko'plab oliy imoratlar va xoqon (Arslonxon) uchun juda hashamatli saroy qurildi. Baykandda juda ko'plab qamishzorlar va suv halqoblari tutashgani uchun uni «Keng havz» deganlar, Qorako'l ham deb atashgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida Qorako'l viloyat deb, Muhammad Solihning «Shayboniynoma» kitobida «Ko'chasi va qo'rg'oni mustahkam shahar» deya ta'riflangan. 1821-yilda Amir Nasrullohxon imzosi bo'lgan hukmnomada ham Qorako'l viloyat deya yozilgan. Amir Haydar o'limidan so'ng Buxoroga kelgan E. Berns mang'itlar mamlakatini 9 ta viloyatga bo'lgan. Unda ham Qorako'l viloyat sifatida ta'riflangan.

1914–1916-yillarda amir qushbegisi tomonidan ma'muriy birliklar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan, unda Qorako'l tuman o'laroq qayd qilingan. 1926-yil 29-sentabrda Buxoro viloyati tarkibidagi tuman sifatida Qorako'l tumani qayta tashkil qilindi.

KECHA VA BUGUN

Toshkent shahar IIBB



1977-yil 30-dekabrda shahar IIBga foydalanish uchun topshirilgan bino ko'rinishi.



2024-yil.



Урок духовности и просвещения

ИСТОРИЯ – ИСТОЧНИК ПАТРИОТИЗМА И НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ

Самосознание народа опирается на постижении правдивой истории. Эта истина обретает особую значимость в период духовного возрождения общества. Человека, знающего историю своей страны, трудно сбить с истинного пути, навязать ему чуждую волю.

Мы являемся наследниками мыслителей, внесших неоценимый вклад в развитие цивилизации. Имена таких великих личностей, как Ахмад аль-Фергани, Абу Наср Фароби, Мухаммад Хоразми, Ибн Сино, Абу Райхон Беруни, Имам аль-Бухари, Улугбек, Алишер Навои, Бабур, известны всему миру.

История свидетельствует, что бурный подъем образования, возникновение научных школ на нашей земле обуславливались быстрым развитием экономики, высоким уровнем ремесленничества и торговли, открытием новых караванных путей. О развитой культуре свидетельствуют древние памятники бактрийской, согдийской, орхонской, хорезмийской письменности, настенной живописи и скульптуры, архитектуры и многое другое.

Трудно переоценить роль пролежавшего через наш край Великого шелкового пути как транспортной артерии, связывавшей государства и регионы. Этот путь обеспечивал не только торговые связи между территориями, но и информационный диалог между странами, служил проводником для распространения новых технологий (производство шелка, фарфора, пороха, бумаги и др.), сельскохозяйственных культур и агротехнологий, а также культурных ценностей, создавая тем самым условия для межкультурного обмена.

В соответствии с традициями просвещенные мыслители и философы, ученые и поэты, как правило, находили приют и покровительство при дворцах правителей и султанов. В их числе широкую известность получила плеяда ученых, успешно работавших в Хорезме в Академии Маъмуна, в школе Улугбека в Самарканде.

Мы не можем не гордиться тем, что наш регион явился источником мощных всплесков научно-культурного подъема в IX-XII веках и XIV-XV веках, которые по праву признаны как эпоха Восточного Ренессанса. При этом его специфика заключалась, в первую очередь, в развитии естественных и точных наук.

Когда говорим о научных открытиях великих предков, в числе первых называем имя Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми, внесшего бесценный вклад в современную математику, тригонометрию и географию. Заслуги аль-Хорезми в развитии мировой науки общепризнаны, его имя и сочинения уве-

ковечены в современных научных терминах, таких как «алгоритм», «алгебра».

Написанный еще в IX веке фундаментальный труд Ахмада аль-Фергани «Книга об элементах астрономии» содержал первые сведения о размерах Земли, доказательство ее шарообразности и вплоть до XVII века использовался в европейских университетах в качестве основного учебника по астрономии, служил научной основой для Колумба, Магеллана и других путешественников эпохи Великих географических открытий. Практическим достижением аль-Фергани стала разработка теории астролябии – основного астрономического инструмента средних веков, а также создание сооружения на реке Нил, известного как «ниломер».

Трудно в полной мере оценить гениальность трудов, созданных энциклопедистом Абу Райхоном Беруни. Он первым предложил оригинальную теорию морей и



построения сферического глобуса Земли, рассчитал земной радиус, объяснил наличие вакуума, предсказал (за 500 лет до Колумба) существование материка за Тихим и Атлантическим океанами, разработал классификацию минералов и теорию их происхождения, заложил основы науки геодезии. Историки естествознания называют XI век «веком Беруни».

Особое восхищение потомков вызывает жизнь и деятельность Абу Али ибн Сино. Своим трудом «Канон врачебной науки» Ибн Сино определил главные направления развития медицинских дисциплин на многие столетия вперед и фактически заложил фундамент основных



методов практической медицины и фармакологии.

«Аристотелем Востока» современники называли за универсальность знаний ученого-энциклопедиста X века Абу Насра Фароби. Он обогатил многие науки, развил философские воззрения ученых разных стран, написал свыше 160 трудов. Самые известные из них – «Слово о субстанции», «Книга о происхождении наук», «О значении разума» и др.

Плеяда выдающихся ученых и мыслителей была бы неполной, если бы мы не упомянули об эпохе

Автором первого в истории «Словаря тюркских языков» был Махмуд Кашгари, который сопроводил свой труд великолепным собранием пословиц и стихов, представляющих собой в полном смысле слова золотые россыпи лексикона. Кашгари считается первым исследователем языка, культуры, этнографии, фольклора тюркских народов.

«Такой богатой истории как у нашей страны, таких великих ученых как наши предки больше нет нигде. Мы должны глубоко изучать это наследие, раскрыть его народу, миру», – подчеркнул Президент Шавкат Мирзиёев.

В Узбекистане особое внимание уделяется сохранению культурного и интеллектуального наследия, а также воспитанию молодежи – строителей Нового Узбекистана в духе гордости за историю своей Родины.

В этих целях реализуются проекты, направленные на глубокое постижение подрастающим поколением истории. Один из них – «Живая история», инициированный Президентом. Это программа, рассчитанная на 2024–2030 годы, охватит обширный период от древнейших времен до недавней истории страны. В частности, будут созданы фильмы о национальном герое Шираке, жившем в VI веке до н. э., о великом полководце Амине Темуре, каракалпакском поэте Аджиниязе, борцах за национальную независимость-джадидах. Говоря о значении данной программы, Шавкат Мирзиёев отметил, что она «даст мощный импульс глубокому пониманию нашего славного прошлого, на основе которого мы смело будем идти в будущее, воспитанию настоящих патриотов и строительству фундамента Третьего Ренессанса».

Соб. корр.



SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

SPORTSEVAR POSBONLAR

Farg'ona viloyati IIB xodimlari orasida turli nufuzli musobaqalarning g'olib va sovrindorlari, mamlakat, Osiyo va jahon chempionlari safi kundan-kunga ko'payib boryapti. Jumladan, viloyat IIB TVBSO guruhi komandiri, leytenant Lazizbek Mullojonov Ispaniya davlati La-Nusiya shahrida sportning boks turi bo'yicha o'tkazilgan «Parij-2024» olimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi «BOXAM» xalqaro turnirida 92 kg vazn toifasida munosib ishtirok etib, barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratdi. Mohir sportchi endilikda olimpiada o'yinlarida mamlakatimiz sharafiga himoya qiladi.

Joriy yilning fevral oyida Toshkent shahrida sportning muay-tay turi bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ham TVBSO katta mutaxassis-o'qchi-sanitari, katta serjant Islomjon Ma'rufov faxrli 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, fevral oyida «Jar» sport majmuasida jangovar sambo bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ushbu otryadning katta mutaxassis-o'qchi-sanitari, katta serjant Lutfulla Saydamatov 58 kg vazn toifasi-

da faxrli 1-o'rinni egallab, Xitoyda o'tkaziladigan Osiyo chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Aprel oyida IIV tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalari terma jamoalari o'rtasida sportning ko'pkurash turi bo'yicha tashkil etilgan «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasida ham farg'onalik sportsevar yurt posbonlari munosib ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Farg'ona viloyati huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy



xizmatchilari o'rtasida jangovar o'q otish bo'yicha «Dinamo» birinchiligi musobaqalarida esa 4 nafar mutaxassis-o'qchi va merganlar viloyat IIB terma jamoasining faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritishiga munosib hissa qo'shishdi.

Viloyat IIB Birinchi mintaqaviy hudud PPX otryadi to'rtinchi guruh haydovchisi, safdor Husniddin Mahmudov sport bilan do'st tutinib, katta muvaffaqiyatlarga erishayotgan xodimlardan biri. Ko'p yillardan buyon kikkoks bilan shug'ullanib kelayotgan bu jonsarak yigit 2020-yilda mamlakat chempioni bo'lgach, O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universitetiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi.

30 yoshni qarshi olayotgan yurt posboni ayni paytda mazkur ta'lim dargohida sirtidan tahsil olmoqda.

U viloyat IIB rahbariyatining amaliy yordami bilan xayrli bir tashabbusga qo'l urdi. O'zi tug'ilib

o'sgan «Tinchlik» shaharchasida-gi 20-umumta'lim maktabi sport zalida kikkoks klubini tashkil etdi. Uyma-uy yurib, sportga ishtiyoqi bor, tarbiyasi og'ir va ko'cha chagitib yurgan barcha bolalarni klubga jalb etdi. Xizmatdan bo'sh kunlari ular bilan mashg'ulotlar olib bordi. Yoshlarni sport bilan do'stlashtirish barobarida, salbiy illatlardan asrashga, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga harakat qildi. Husniddinning tinimsiz izlanishlari besamar ketmadi. Uning shogirdlari nafaqat jinoyat ko'chasidan uzoqroq bo'lishdi, hatto ular orasidan 1 nafar jahon chempioni, 3 nafar Osiyo chempioni, 6 nafar O'zbekiston chempioni va ko'plab nufuzli xalqaro musobaqalar ishtirokchilari yetishib chiqdi.

Suxrob MIRZAYEV,
mayor.
Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



KASB FIDOYISI

BAXTGA PESHVOZ CHIQUIB

Hayot kutilmagan tuhfalarga boy. Sirdaryo viloyati IIB YHXB Axborot texnologiyalari guruhi yetakchi inspektori, kapitan Elyor Qo'chqorov ilk xizmat faoliyatini boshlaganida ichki ishlar tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini oshib borayotgan davr edi. Ayniqsa, uni tizimdagi Face ID tizimi qiziqtirib qoldi.



Haydovchilik guvohnomasini olishga kelgan fuqaroni suratga olish jarayonida uning shaxsi avtomatik ravishda aniqlanardi. Olingan surat personallashtirish tizimiga yuborilar, bir necha soniyada shaxsi tasdiqdan o'tardi.

Bu orada YHXga videokuzatuv tizimi, radarlar kirib keldi. Har tomonlama qulay, inson omilisiz qoidabuzarliklarni qayd etish, shu tarzda ularni kamaytirish imkonini beruvchi o'ziga xos tizim edi bu. Garchand texniklar kuzatuv moslamalarini o'rnatib berishsa ham, ularning integratsiyasi, kelayotgan axborotlarni qayta

ishlash uning zimmasida edi. Bu anchagina murakkab ish bo'lib, tizim qoida buzgan avtomobilni identifikatsiya qilib berar, lekin uning egasiga ma'muriy bayonnomalarni rasmiylashtirishda xatoga yo'l qo'yish mumkin emasdi. Bunday xato norozilik keltirib chiqarardi. Shu sabab Elyor har bir qoidabuzarlikka alohida e'tibor berar, xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qilardi.

Elyor Qo'chqorov viloyat chegaralaridagi muntazam blok-postlardagi kuzatuv kameralari yordamida 2023-yilda olti nafar qidiruvdagi shaxsni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, jori-

malarni to'lamay yurgan haydovchilarni aniqlash borasida yuqori samaradorlikka erishilgandi. O'tgan yili 200 dan ortiq holatda ana shunday avtomobil egalari ushlandi.

Hayot kapitan Elyor Qo'chqorovga tuhfa qilgan eng katta baxt – uning oilasi. Taqdir unga bir-biridan go'zal to'rt nafar qizaloqni tuhfa qildi. Xizmatdan so'ng uyga qaytganida qarshisiga yugurib chiqishadi. Ana shunday lahzalarda baxt unga peshvoz chiqayotganini qalban his qiladi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

ЎХШАШ ЧЕХРАЛАР



– 1975 йилда техникумни энди тамомлаган пайтларим эди, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Ички ишлар органларида ишлайдиган бир ўртоғим паспорт бўлимасидаги паспортчи вазифасига хуснихати чиройли ёшларни танлов асосида ишга қабул қилаётганини айтиб, ўша ерга мени бошлаб борди. Танловда қатнашдим. Чиройли ва беҳато ёзганим учун ўндан зиёд номзодлар орасидан мени танлаб, ишга қабул қилишди. Шундан сўнг 17 йил давомида паспорт столида турли лавозимларда хизмат қилдим.

Ёқубжон Маҳмудов 1983–1985 йилларда хизматдан ажралмаган ҳолда, Тошкент олий милиция мактабида сиртдан таҳсил олиб, билимларини ошириб борди. Кейинчалик Фарғона тумани ИИБ бошлиғининг кадрлар бўйича ўринбосари лавозимида хизмат қилган қаҳрамонимиз 1997 йилда шогирдлар эҳтиромида пенсияга чиқди.

Лавҳамиз қаҳрамони пенсияга чиққанидан сўнг ҳам соҳадан узоқлашиб кетмади. 23 йил давомида туман ИИБ Фахрийлар кенгашига раислик қилди. Ёш ходимларни Ватанга муҳаббат, касбга садоқат руҳида тарбиялашга муносиб ҳисса қўшди.

ФАРҒОНАЛИК РАЖ КАПУР

Фарғона тумани «Ёшларобод» қишлоғидаги «Тинчлик» маҳалласида умргузаронлик қилаётган 74 ёшли ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Ёқубжон Маҳмудовни таниган-билганлар жуда камтарин, дилкаш ва қувноқ инсон сифатида эътироф этишади. Юзидан нур ёғилиб турган нуроний билан суҳбатлашган кишининг баҳри дили очилади, ўзига бир олам маънавий озуқа олади.

– Шогирдларим жуда кўп, – дейди у. – Аммо уларнинг орасида жияним Абдуҳоди Ғойибназаровни алоҳида эътироф этишим керак. Чунки у менга ҳавас қилиб, ИИБ Академиясига ўқишга кирди. Ўқишни тамомлаб, вилоят ички ишлар органларида турли лавозимларда хизмат қилди. Бир неча йил вилоят ИИБ бошлиғининг ўринбосари сифатида фаолият кўрсатган полковник А. Ғойибназаров ҳозирда вилоят ИИБ Молия ва моддий-техника таъминоти бошқармаси бошлиғи ўринбосари – моддий техника ва хўжалик таъминоти бўлими бошлиғи лавозимида хизмат қилмоқда. Ҳалигача келиб мендан маслаҳатлар олиб туради.

Ёқубжон Маҳмудов турмуш ўртоғи Малоҳат ая билан ҳам-

жиҳатликда 5 нафар фарзандни вояга етказишди. Бугун 17 нафар набира, 8 нафар чевара қуршовида кексалик гаштини суришмоқда.

Фахрий истиқомат қиладиган хонадонга кирсангиз, ҳинд кино юлдузи, машҳур актёр Раж Капурнинг жуда кўплаб суратларига кўзингиз тушади. Бу унинг ҳинд кино санъатида иштиёқи баланд эканидан далолат беради.

– Мана бу суратлар Раж Капурники деб ўйлаётган бўлсангиз керак, – деди Ёқубжон ота ҳайратланганимизни кўриб. – Ишонасизми-йўқми, буларнинг аксарияти менинг суратларим. 30–40 ёшлар атрофида худди шу кўринишда эдим. Аслида болалигимдан Раж Капур ролларига қизиқаман,




у ижро этган барча кинофильмларни севиб томоша қилганман, ҳалигача қайта-қайта кўравераман. Ҳавасим шу даражада кучли эканлигидан сочларимни актёрникига ўхшаб тарашга, унга ўхшаб кийинишга уринардим, жимжимадор мўйловим ҳам бор эди. Кўчада «Ана Раж Капурга ўхшайдиган ходим келяпти», дея фуқаролар ҳам ҳайрат билан қараб қолишарди. 1986 йилда машҳур ҳинд актёри Тошкентга кинофестивалга келганида, у билан суратга тушиш бахтига ҳам эришганман. Ҳалигача набираларим билан ҳинд қўшиқларига рақсга тушиб тураман. Бу менга завқ беради, ёшлигимни ёдга солади.

Донишмандлардан бири «инсоннинг қалби қанчалар гўзал бўлса, юзи ҳам ёш кўринади», деганида ҳақ гапни айтган экан. Истеъфодаги подполковник Ёқубжон Маҳмудов билан яқиндан мулоқот қилсангиз, бу ҳикмат маъзини янада теранроқ ҳис этасиз.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.



СЎЗ МУЛКИГА САЙР

ВОДИЙДАНМИСИЗ Ё ВОҲАДАН?

Аксар юртдошларимиз водий деганда, уч вилоятни бағрига жо қилган Фарғона водийсини, воҳа деганда эса – фақатгина Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятларини назарда тутишади. Шу боис аслида қандайлиги, яъни бу икки сўзнинг мазмун-моҳияти ва қамрови хусусида фикр айтишга жазм этдик.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида келтирилишича, «воҳа» арабча сўз бўлиб, саҳро ўртасидаги сувли, кўкаламзор жой маъносини англатади. Шунингдек, чўллар ва чалачўллар бағридаги обод қилинган ерлар ҳам воҳа дейилади. Шу маънода халқимиз Зарафшон дарёси атрофидаги кўкаламзор жойларни Зарафшон воҳаси, Амударё бўйларидаги обод манзилларни Хоразм воҳаси деб атаган.



«Водий» ҳам арабча сўз бўлиб, қуриб қолган ўзан, жарлик маъноларини билдиради. Бироқ бу сўзнинг қамрови «воҳа»га нисбатан анча кенгдир. Яъни, у юқоридаги маъноларидан ташқари, дарё бўйлаб чўзилган ёки тоғлар орасидаги кенг текислик маъноларини ҳам англатади.

Умуман олганда, халқимиз водий деганда, экин экиладиган, обод ерларни тушунади. Шунингдек, у мамлакат ёки бепоён юртимизнинг бир бўлаги, гўзал диёр жумлалари ўрнида ҳам келади.

Бундан ташқари, бу сўзнинг кўчма маънолари ҳам бўлиб, уларнинг ҳар бири муайян маъно ташийди. Масалан, Наманган шаҳрида барпо

этилган сўлим боғ ва хиёбон «Афсоналар водийси» деб аталади.

Шунингдек, мумтоз адабиётимизда бу сўзга бошқача маънолар юкланганини кўраимиз. Хусусан, ҳазрат Навоий «Жунун водийсига мойил кўрармен жони зоримни» деганда, мажнунликни, телбалик оламини назарда тутган. Домла Файратий эса «Чиқолмай сира маълум гирдобдан, Фано водийсини кезган бандалар» мисраларини битаркан, йўқлик оламини урғулаган.

Хуллас, сиз ҳам сўз мулкига сайр этсангиз, бундан-да ажойиб жавоҳиротларни топишингизга ишончимиз комил.

Темир ҚУРБОН.



Институт наставничества

РАВНЯЯСЬ НА СТАРШИХ КОЛЛЕГ

Дознаватель следственного отдела при УКД ОВД Мирабадского района столицы лейтенант Бобир Нематиллоев в органах внутренних дел недавно. Уроженец города Бухары пришел в сферу с большими надеждами осуществить новые идеи, достичь в службе успехов. По специальности он юрист. После окончания в 2019 году Ташкентского государственного юридического университета, молодой специалист был принят в Ташкентское городское управление юстиции. До поступления в правоохранительные органы возглавлял отдел в Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан.

– Сущность масштабных реформ заключается в обеспечении благополучной жизни населения путем построения справедливого гражданского общества, где права и интересы людей надежно защищены законом, – говорит Б. Нематиллоев. – В достижении этой цели большая роль отводится органам внутренних дел. Осознавая всю ответственность, стараюсь быть достойным своей профессии.

В условиях Нового Узбекистана актуальными вопросами являются подготовка высококвалифицированных специалистов, выведение практики работы следственного звена на новый уровень, внедрение передовых стандартов.



Большое внимание уделяется оказанию содействия молодым кадрам в совершенствовании навыков работы. Лейтенант Бобир Нематиллоев также набирается опыта у старших коллег. Одна из них – подполковник Тамила Кулиева, мнение которой всегда значимо.

Тамила Кулиева родилась в городе Ташкенте. С юности мечтала стоять на страже законности. В 2001 году поступила на учебу в Академию МВД Узбекистана. После окончания вуза начала службу в должности следователя СО при УКД ОВД Мирабадского района, где продолжает плодотворно работать и по сей день.

– Молодым коллегам не устаю повторять, что к профессионализму сотрудников следственного звена предъявляются повышенные требования. Это требует постоянной работы над собой, – делится подполковник Т. Кулиева.

Абдор ПОЁНОВ,
соб. корр.

■ Бухарская область

ДРУЖНАЯ СЕМЬЯ ПРОФЕССИОНАЛОВ



Супруги майоры Элёр Юсупов и Мадина Насибуллаева по зову сердца посвятили себя служению Родине, защите мира и спокойствия граждан.

Мадина родом из Чустского района Наманганской области. С детства она отличалась волевым, целеустремленным характером. Это, видимо, способствовало тому, что она поступила в Академию МВД. Свою жизнь с благословения отца и матери связала с парнем из Бухары – сокурсником Элёром Юсуповым.

В 2016 году М. Насибуллаева начала службу с должности инспектора Центра оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним Управления профилактики правонарушений УВД Бухарской области. В настоящее время является сотрудницей Службы уголовного розыска областного УВД.

Ее супруг Элёр Юсупов – старший оперуполномоченный УКД ОВД города Бухары.

Майора Э. Юсупова коллеги характеризуют как одного из лучших сотрудников. За достижения в службе не раз удостоивался благодарности руководства областного УВД и Департамента общественной безопасности МВД.

В минувшем году дружная чета заняла второе место в областном этапе конкурса «Образцовая семья».

Они воспитывают двоих сыновей – Элнура и Мухаммадсолиха. Стремятся, чтобы их дети выросли достойными гражданами страны.

Мирзокул АХАДОВ, соб. корр.
Бухарская область.



O'QISHNI TAVSIYA QILAMAN

CHUQUR MAZMUN VA HISSİYOTLARGA BOY ASAR

Yaxshi kitob o'qimaydigan odamning umuman kitob o'qimaydigan odamdan hech qanday ustunligi bo'lmaydi, degan edi donishmandlardan biri. Mening tabiatimda ham shu xislat bor, yoqtirgan kitobimni, albatta, topib o'qiyman. Har gal maosh olgan kunim, bir dona bo'lsa-da, kitob xarid qilish odat tusiga kirgan.



Men Toshkent shahar Chilonzor tumani IIOFMB 4-sonli IIB HPB YOMB profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat qilaman. Kitobxonlik tanlovlarida ko'p marotaba ishtirok etganman. Xususan,

2023-yili «Ajdodlar izidan» intellektual tanlovida Toshkent shahar IIBB jamoasi tarkibida qatnashib, shahar bosqichida faxrli birinchi o'rinni oldik. Hamkasblarimiz bilan bo'sh vaqlarimiz yaxshi bir

kitob haqida fikr almashamiz, bir-birimizga o'qishni tavsiya etamiz.

Kitob javonimdagi eng sevimli asar Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she'riy romanidir. Uni Oybek hamda Mirzo Kenjabek o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Sankt-peterburglik zodagonlardan bo'lgan Yevgeniy Oneginning hayoti o'yin-kulgu, bazmlar, konsertlar bilan kechadi. Boyvachcha amakisining o'limidan so'ng unga katta boylik va yer mulki meros bo'lib qoladi. Yevgeniy boshqa hududga ko'chib o'tgach, u yerda qo'shnisi, yosh shoir Vladimir Lenskiy bilan do'stlashadi. Lenskiy Oneginni o'zining turmush o'rtog'i, xushchaqchaq, ammo hayot mazmuni haqida o'ylamaydigan Olga Larining oilasi bilan kechki ovqatga olib boradi. Bu uchrashuvda u Tatyana ko'rib qoladi.

Tabiatan sokin, odamovi va Olganing butunlay teskarisi bo'lgan Tatyana Oneginni yoqtirib qoladi. Ne-ne ikkilanish va iztiroblar ichida u Oneginiga maktub yo'llay-

di. Ammo, afsuski, Onegin unga javob yozmaydi. Negaki, uning hayotida muhabbat deb atalmish bebaho tuyg'u o'z qadr-qimmatini yo'qotgan, yengil-yelpi hayot kechirishga odatlangan edi. Shu bois Tatyana faqat do'stlikni taklif qila olishini bildiradi.

Keyinchalik Lenskiy Oneginni Tatyana bilan tug'ilgan kunini nishonlashga taklif etadi. Onegin o'zi va Tatyana g'iybat qiladigan mehmonlardan, uni kelishga ko'ndirgan Lenskiydan g'azablanadi. U Olga bilan raqsga tushish orqali do'stidan o'ch olishga qaror qiladi. Jiddiy va tajribasiz Lenskiyga bu qattiq ta'sir qiladi. U Oneginni duelga chaqiradi. Duel paytida Onegin beixtiyor Lenskiy o'ldiradi. Shundan so'ng u o'z uyini tashlab, pushaymonlik tuyg'usini o'chirish uchun chet elga sayohatga ketadi. Onegindan ayrilib yuragi ezilgan Tatyana esa Moskvada xolasi bilan yashab qoladi.

Oradan bir necha yil o'tib, Sankt-Peterburgda katta bazm bo'ladi. Onegin ham bazmda qatnashish va zodagonlar bilan muloqot qilish uchun keladi. U hammaning e'tiborini o'ziga tortadigan,

jamiyat girdobida markaziy o'rinni egallagan eng go'zal ayolni ko'radi. Onegin u ayol bir vaqtlar sevgisini rad qilgan o'sha Tatyana ekanini tushunadi. Endi u kekka generalga turmushga chiqqandi. Tatyana mehmini qozonishga intilgan Onegin ayolga bir necha marotaba xat yozadi, lekin hech qanday javob olmaydi. Oxir-oqibat, u Tatyana ko'rishga muvaffaq bo'ladi va birga qochib ketishni taklif qiladi. Tatyana hali hamon uni sevishini tan olsa-da, oilasining buzilishiga yo'l qo'ymaydi, eriga sodiq qolishga qaror qilganini aytish bilan cheklanadi.

Asarning men aytib ulgurmagani voqealari talaygina. Buni o'quvchi kitobni mutolaa qilish jarayonida o'zi tushunib, amin bo'ladi, degan umiddaman.

Asar asosida film ham suratga olingan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilingan. Topsangiz, katta mazmun va chuqur hissiyotlarga boy bo'lgan mazkur asarni, albatta, o'qing. Hech bo'lmasa, kinosini tomosha qiling.

Farangiz ERGASHOVA,
leytenant.

Toshkent shahri.

MULOHAZA

CHEGARANING CHEGARASI QAYERDA?

Chegara – bu davlatlarni bir-biridan ajratib turuvchi hudud. Uning orasida neytral, ya'ni hech biriga daxl qilmaydigan kichik hudud ham bor. Viloyat, tuman, xo'jalik va mahallalar o'rtasida esa asosan daryo, kanal, yo'l yoki kichikroq bo'lsa-da ariq va zovurlar borligi sir emas.

Ammo odamlar yashovchi maskanlar – uy va hovlilar o'rtasida esa asosan devor, to'r yoki tikanli simlar bo'lishi barchamizga ma'lum.

Qishloqda bir ta'ziyada qatnashdim. Tumonat odam yig'ilgan. Ta'ziyaga keluvchilar qo'shnilar hovlisini o'rab tortib qo'ygan tikanli simlar orasidan arang o'tib kelishar edi. Biri boshini chayqasa, boshqasi nafsingga o't tushsin deganday, pichirlab ham qo'yardi.

Ha, bugun bunday manzara ko'pchilikka tanish. Biyday dalani to'rli yoki tikanli simlar bilan o'rab olgan kishilarni esa bu hol zarracha

qiziqitirmaydi. Bahona – moliga xashak kerak. Aslida u yerda o'sgan o't-o'lan bir qo'zining qornini to'ydirmasa-da, uy egasining ko'zini to'ydirayotgan

bo'lsa ajab emas.

Ba'zi joylarda esa ayrim kishilar yo'l ustiga qo'shimcha binolar ham qurib olishgan. Bu yerga imorat qurmang,



qo'shni, deganlarning dodini bergan. Bugun biron yong'in o'chiruvchi mashinasi kelganda, o'zi va boshqalar ham azobini tortishayotgani aniq. Ammo ne qilsin, yer to'ysa-da, ko'zi to'ymasa...

Shundaylarga qarata quyidagi savollarni berging keladi.

– Nima qonuniy, ammo mantiqiy emas?

– Nima mantiqiy, lekin qonuniy emas?

– Nima qonuniy ham emas, mantiqiy ham emas?

Uylar qonuniy qurilgandir, ammo hovli chegarasi mantiqiy emas. Agar u mantiqiy bo'lsa-da, qonuniy emas. Chunki qonun bunga yo'l qo'ymaydi. Qolaversa, bundan xalq rozi emas ekan, ular qonuniy ham emas, mantiqiy ham emas.

Shunday ekan, chegaraning chegarasi qayerda? Bizningcha – nafsda. Nafsingizni jilovlang, aziz odamlar! Bir parcha yer, o'n metr kafanlik mato haqiqiy chegara bo'ladi.

Shuhrat RO'ZIYEV,
jurnalist.



PROBATSIIYA

Surxondaryo viloyati

HALOLLIK UNING SHIORI



Navoiy viloyati

Xato qilish inson fitratiga xos xususiyatdir. Ammo uning keyingi hayoti ana shu xatodan qanday xulosa chiqarishiga qarab baholalanadi. Shunday kishilar borki, nomaqbul qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga, qonunbuzarligini navbatdagi jinoyati bilan bekitmoqchi bo'lishadi.

Navbahor tumanlik A. R. uchun sudning qora kursisi begona emas. U bir necha bor qing'ir qilmishlari tufayli jazosini o'tagan. So'nggi bor oilaviy sharoiti va farzandlarining yagona boquvchisi ekanligi nazarda tutilib, axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanib, Navbahor tumani IIB Probatsiya guruhi nazorati ostiga olingan edi.

Ammo mahkum sud ajrimidagi shartlarni bajarishdan bo'yin tovlab, Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Akmal Yo'ldoshevning qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortdi. U bilan ko'p bora profilaktik tushuntirish ishlari olib borilishiga qaramay, jazo o'tashdan bo'yin tovlab, tayinli ishning boshini tutmadi.

Shundan so'ng mas'ul xodim sudga taqdimnoma kiritib, uning jazosi og'irroq jazoga almashtirildi.

shini so'radi. Bundan xabar topgan mahkum ayblarini pora berish orqali yopishga urindi. Yopig'liq qozon yopig'liq qolishi evaziga kapitan Akmal Yo'ldoshevga bir million so'm pul taklif qildi.

Tezkor xizmat bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan tadbirida u jinoyat ustida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Navbahor tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Akmal Yo'ldoshev qariyb 13 yildan buyon ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatadi. U probatsiya hisobidagi 259 nafar mahkumning sud tomonidan belgilangan jazolarini ijro etishini nazorat qiladi.

Shuning bilan bir qatorda, ularga ijtimoiy-moddiy ko'mak ko'rsatish, qayta jinoyatga qo'l urmasliklari uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etishga boshqosh. Qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, qat'iy tuzalish yo'lga o'tgan, halol mehnat bilan mashg'ul bo'layotgan mahkumlar to'g'risida sudga taqdimnoma kiritib, ularga yana bir bor imkoniyat berilishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

YOSH CHOG'IM –
OLTIN CHOG'IM

Yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi juda muhim. Buning uchun ularni qo'l-lab-quvvatlash, bo'sh vaqtda foydali mashg'ulotlarga jalb qilish, ishli, kasb-hunarli qilish juda foydali bo'ladi. Sherobod tumani IIB JXX Probatsiya guruhi nazorati ostidagi yoshlar bilan ham ana shunday tartibda ish olib borilayotgani boisi shu.

Probatsiya guruhi nazorati ostidagi yoshlar bilan joriy yilning 5 oyi davomida yuqoridagi kabi sport tadbirlari yil boshidan beri 3 marotaba, kitobxonlik tadbirlari 4 marotaba, 12 marotaba mehnat yarmarkalari o'tkazildi. Natijada 21 nafar yigit-qiz mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashdi, 11 nafarining qayta kasb o'rganishiga, 4 nafarining ID-karta olishiga amaliy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, tuman IIB boshlig'i-ning tez-tez yoshlar bilan muloqoti,

– Ayni paytda 54 nafar nazorat ostidagi yoshlar hisobda turadi, – deydi tuman IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Qosim Qurbonazarov. – Ularning 26 nafariga ishga joylashish, haydovchilik guvohnomasini olish, o'zini o'zi band qilishi uchun asbob-uskuna xarid qilishiga yaqindan ko'maklashildi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish istagida bo'lgan yoshlar to'garaklarga jalb qilindi.

Yaqinda «Cho'yinchi» mahallasida joylashgan sport majmuasida tuman IIB hamda Bolalar va o'smirlar sport maktabi hamkorligida nazorat ostidagi yoshlar ishtirokida minifutbol musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa ko'tarinki ruhda o'tib, jamoalar o'rtasida sovrinli o'rinlar uchun qizg'in kurash kechdi. Yakunda esa g'olib jamoaga tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining kubogi topshirildi.

Shuningdek, nazoratdagi yoshlar tuman axborot-kutubxona markazida bo'lib, u yerda kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishtirilmog'da. Bu esa ularni kitobga oshno bo'lishiga yordam berayotir.



sayyor qabullari tashkil etilmoqdaki, bunda ularning ko'plab muammolari o'z yechimini topmoqda.

– Ichki ishlar organi xodimlarining ko'magi bilan xususiy korxonaga ishga kirdim, – deydi N.Xolmurodov. – Hozir o'zimning ehtiyojlarimni o'zim qoplayapman.

Albatta, e'tibor va g'amxo'rlikning samarasi bo'ladi. Muhimi, jinoyat sodir etib jazo muddatini o'tayotgan yoshlarning hayotga qiziqishi uyg'onadi, maqsad bilan yashashga va boshqa jinoyat sodir etmasdan, hayotda o'z o'rinlarini topishiga ko'mak beradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATIDAN

Yaqinda IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan vazirlik tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan maktab-internat va 2-sonli akademik

qizg'in va murosasiz o'tgan bahslar davomida shashka bo'yicha raqiblaridan har tomonlama ustunligini namoyish etgan 4-sonli «Kamalak» nomli MTT tarbiyachisi Marg'uba Qosimovaga teng keladigan sportchi topilmadi. Keyingi o'rinlar 5-sonli «Navro'z» nomli MTT logopedi Shahnoza Xodjayeva hamda 1-sonli «Nihol» nomli MTT tarbiyachi yordamchisi Dilnoza G'ofurovaga nasib etdi.

Badminton bellashuvlarida esa 3-sonli «Semurg'» nomli MTT musiqa rahbari Valeriya Lining qo'li baland keldi. 1-sonli «Nihol» nomli MTT tarbiyachisi Yelena Ruglyak shohsupaning



litseyda faoliyat olib borayotgan ayollar o'rtasida «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida sportning shashka va badminton turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

2-pog'onasini zabt etgan bo'lsa, «Semurg'» nomli MTT direktori Nilufar Rasulova 3-o'ringa loyiq topildi.

Mazkur sport bayrami yakunida barcha sovrindorlar diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, «Eng faol ishtirokchi» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi Muazzam Ubaydullayevaga ham musobaqaning esdalik sovg'alari topshirildi.

Nodirjon BAZAROV,
mayor.

Toshkent shahri

■ Республика Каракалпакстан

НЕ ПОВТОРИТЬ ОШИБКУ

В нашей стране особое внимание уделяется обеспечению прав женщин, повышению их роли в обществе. В этом направлении приняты ряд законов, которые неукоснительно претворяются в жизнь.

В феврале нынешнего года был принят Закон «О внесении дополнений в статью 248 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности».

В соответствии с ним усилена ответственность инспекторов органов внутренних дел по вопросам женщин по контролю за выполнением требований выданных охранных ордеров.

... Житель Нукуса Т. И. систематически проявлял агрессию в отношении супруги. Та обратилась в органы внутренних дел. Инспектор профилактики выдал женщине охранный ордер, проводил профилактические беседы с супругами. Но муж не желал идти на мировую.



Поэтому суд постановил продлить срок действия ордера еще на шесть месяцев, предупредив, что нарушение его требо-

ваний влечет ответственность.

Однако Т. И. игнорировал требования ордера. На основании ходатай-

ства инспектора профилактики суд назначил ему наказание в виде ареста на пять суток, разъяснив, что повторение правона-

рушения повлечет еще более суровое наказание.

– Жизнь многогранна. Каждая из сторон приводит доводы в свою пользу. Подобное чаще всего встречается в молодых семьях. При разборе ситуаций призывает не делать скоропалительные выводы. В необходимых случаях обращаемся к психологам. Это дает свои результаты, – говорит инспектор по вопросам женщин УКД ОВД города Нукуса подполковник А. Наменова. – За пять месяцев текущего года в Нукусе охранные ордера выданы 193 женщинам. Благодаря разъяснительной и профилактической работе удалось примирить 143 семьи. Еще в 43 случаях предотвращены семейные конфликты.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

★ Летний отдых

ВЕСЕЛО В «АСАКЕ»

Оздоровительный лагерь – место, куда стремятся дети, чтобы найти друзей, весело, с пользой провести каникулы.



Детский оздоровительный лагерь «Асака», расположенный в Асакинском районе в урочище Ниязботир, дает детворе возможность раскрыть свои таланты, проявить личную инициативу.

– Нынешним летом здесь отдохнут и наберутся сил более 600 мальчишек и девчонок, – рассказывает директор лагеря подполковник в отставке Иномжон Тешабаев. – Как правило, бесплатные путевки предоставляются на предприятиях малоимущим и многодетным



семьям Мархаматского и Асакинского районов. Ребятам некогда скучать. Работают арт-студия, кружки по интересам – хореографии, вокалу, английскому языку, резьбе по дереву, бисероплетению, кройки и шитья, компьютерной грамотности.

Здесь климат лечебный. Разнообразное меню, обилие овощей и фруктов укрепляют детский организм, дарят здоровье.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.
Андижанская область.



TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI

SOHANI O'RGANGAN SARI, UNGA BO'LGAN MEHRIM YANADA ORTMOQDA

– deydi Toshkent tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan Salohiddin Abduqahhorov

Toshkent tumani IIBga «Ko'ksaroy» mahallasida yashovchi Sobir Tirkashev (voqea ishtirokchilarining ism-shariflari o'zgartirildi) murojaat qilib, o'zi yashayotgan xonadonga begona shaxs kelib, uyni Xurshida Esonovadan sotib olganini aytib uning oilasini ko'chaga haydayotganligi haqida xabar berdi. Bu ishni ko'rib chiqish kapitan Salohiddin Abduqahhorovga topshirildi.



...Onasini davolatish uchun tanishi Xurshidadan 3 oy muddatga 180 million so'm qarz so'ragan Sobir uning javobidan boshi qotdi. Qo'l siltab ketay desa, buncha pulni beradigan boshqa tanishi yo'q. Noiloj uning shartiga ko'nib, notarius orqali uyini X.Esonovaga o'tkazib berdi. Shundan so'ng yugur-yugur bilan bo'lgan Sobir uyi Xurshida tomonidan sotib yuborilganini sezmay ham qoldi.

Onasi sog'ayib ketganidan quvongan Sobirning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Bir kuni ertalab Akbar Shukurov uning darvozasini taqillatdi.

– Sizga muhim gapim bor edi, shuni aytish uchun kelgandim. «Xurshida 540 million so'm qarzi evaziga bu hovlini menga sotdi, shuning uchun uyni bo'shatib qo'ysangizlar...» – dedi Akbar.

Bu gapdan keyin Sobirning boshiga gurzi bilan urgandek bo'ldi, u zo'rg'a so'riga o'tirdi. Negaki, A. Shukurovning qo'lida turarjoyga egalik huquqini beruvchi hujjat borligi

sababli uyni bo'shatib berishlarini talab qildi.

Ish yuzasidan to'planagan hujjatlar bilan tanishib chiqqan kapitan Salohiddin Abduqahhorov X.Esonovadan nega bunday ishga qo'l urganini so'radi. Ayol esa hech qanday nohaqliq qilganini, uyni egasining roziligi bilan sotib olganini bildirdi. Biroq jinoyat ishini puxta olib borayotgan ziyarak tergovchi Xurshidaga Sobir bilan uning o'rtasidagi o'zaro kelishuv yozilgan audiotasmani qo'yib berdi. Uch oy muddat tugab, Sobir 180 million so'm qarzini uzganidan so'ng uyini yana uning nomiga o'tkazib berishi haqidagi gapini eshitgan Xurshida keltirilgan dalillar oldida mulzam bo'lib, aybini tan olishdan boshqa chorasi qolmadi. Buning ustiga, mahoratli tergovchining sa'y-harakatlari bilan gumonlanuvchining xuddi shunday yana 8 ta jinoyati «issiq izida» fosh qilinib, sud hukmiga havola etildi.

lavhamiz qahramonining otasi, iste'fodagi

podpolkovnik Muhiddin Abdusattorov uzoq yillar ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatida faoliyat yuritgan. IIV Akademiyasi tergov faoliyati yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tamomlagan Salohiddin ilk xizmat faoliyatini mazkur tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi surishtiruvchisi lavozimida boshlagan. Ustozi, hozirda iste'fodagi podpolkovnik A'zam Mahkamov unga kasb sirlarini o'rgatgan.

– Oldimga o'z kasbimning ustasi bo'lishdek ulkan maqsad qo'yganman, – deydi Salohiddin Abduqahhorov. – Bu borada ustozlarimning o'rni beqiyos bo'lmoqda. Shu boisdan ularni doim e'zozlab kelaman.

Ikki yuzga yaqin jinoyat ishlarini tergov qilib sud organlariga yuborgan kapitan S.Abduqahhorovning hozirgacha birorta ham materiali qaytarilmagani tahsinga loyiq.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI HIMOYADA

Uzoq davom etgan kelishmovchilik tufayli ajrashishga qaror qilgan Jamila (ismlar o'zgartirildi) ota uyiga qaytib keldi. Oradan biroz vaqt o'tdi. Ota-onasining «qizim, senga o'xshab oilasi buzilgan bir yigitdan sovcilar kelyapti. Oliy ma'lumotli, uyli-joyli, tayinli ishi bor ekan. Rozi bo'lib shunga turmushga chiqsang, hayoting izga tushib ketadi hali» degan so'zlari bilan u ikkinchi bor turmushga chiqdi.

Yangi oila qaynona, qayinopa va yosh kelin-kuyovdan iborat bo'lib, avvalboshda hammasi yaxshi edi. Ammo, oradan bir yil o'tar-o'tmas, barchasi sarobga aylandi. Er ichib kelib Jamilaning birinchi turmushini yuziga solib, janjal ko'taradigan, uradigan odat chiqardi. Bunga chiday olmay ota uyiga qaytgan Jamilani ota-onasi bir necha marta erinikiga olib borib qo'ydi. Afsuski, navbatdagi janjallardan birida kaltak tufayli ayolning qo'li sinib, jiddiy jarohat oldi. Bundan xabar topgan hudud profilaktika inspektori juvonga himoya orderi berib, so'ngra Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaziga joy-



lashtirdi. Bu yerda unga dastlab psixologik va tibbiy yordam ko'rsatilib, jiddiy jarohat tufayli nogiron bo'lib qolishining oldi olindi. Zo'ravon erga nisbatan esa jinoiy ish qo'zg'atildi...

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining Qoraqalpog'iston hududiy bo'limi tomonidan ham ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

– Bo'limimiz 2021-yildan o'z faoliyatini boshlagan. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarning muammosidan kelib chiqqan holda, eng avvalo, ularning psixologik portreti shakllantiriladi va ular bilan ishlash bo'yicha reja ishlab chiqiladi. Shu asosda psixologik, tibbiy yoki boshqa turdagi yordamlar beriladi, – deydi bo'lim direktori Sayyora Nosirova.

Bulardan tashqari, bo'lim tomonidan og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish-

ga ko'maklashish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari ham amalga oshirib kelinmoqda.

– O'tgan vaqt mobaynida Respublikadagi tuman, shahar IIBlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari tomonidan hududlarda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning muammolarini hal etishda qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ayrim raqamlarga to'xtalib o'tsak: joriy yilning 5 oyi davomida 1092 nafar xotin-qizlarga «himoya orderi» berilgan bo'lsa, 224 nafar Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaziga joylashtirilib, turli yo'nalishda yordamlar ko'rsatildi. Shu bilan bir qatorda, hududlarda olib borilgan o'rganishlar davomida xotin-qizlardan 130 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda, 244 nafariga moddiy va ijtimoiy yordamlar berildi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Xurzada Reymkulova.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



MULOHAZA

BOLALAR FE'LIDAGI JAHLIDORLIK: SABAB VA YECHIM

Yaqinda o'quv yili tugashi munosabati bilan o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida o'tkaziladigan majlisga bordim. Farzandlarimizning fanlarni qanday o'zlashtirgani, baholari va xulqi haqida suhbatlashib bo'lgach, mavzu sinfdagi ikki o'quvchi qiz fe'lidagi agressiyaga borib taqaldi. Sinfxonaning har tomonidan «Kecha qizimni sochidan tortib urmoqchi bo'lishibdi», «Mening qizimni uyatli so'zlar bilan haqorat qilibdi», «Sumkasini tortib olibdi» kabi shikoyatlar yangradi. Bu kabi voqealar faqatgina ikki mushtumzo'r qizdan jabr ko'rgan o'quvchilar yaqinlarining jahlini chiqaribgina qolmay, boshqa ota-onalarning ham tashvishiga sabab bo'ldi.

Bu voqea qachon, qayerda va nima sabab bo'lgani, unga jahldor va jabrlangan qizlar ota-onasining munosabati haqida to'xtalmoqchi emasmiz. Bugun yosh o'quvchilar xarakterida bu holatlarni ko'rayotganimiz haqida to'xtalmoqchimiz. Xo'sh, bola qaysi sabablarga ko'ra agressiv bo'ladi? U o'z masalasini zo'rlik bilan hal qilishni qayerda va kimdan o'rganadi? Shular haqida fikr yuritmoqchimiz.

«Nazorat susaygani sabab...»

– Qizim aytib berdi, – deydi majlisga borgan onalardan biri. – Aslida bu qizlar yomon emas, kimdir jahlini chiqarsa, o'zgarib qolisharkan. Bili-shimcha, birining ota-onasi ajrashgan, onasi boshqa turmush qurib ketgan. Balki shular sabab uning xarakteri, o'zini tutishiga bo'lgan nazorat susaygandir...

Yana bir narsa, bugun farzand tarbiyasini onaning o'ziga yoki aksincha, otaga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bolalar oilaning, jamiyatning, yurtning kelajagi. Biz farzandlarimizning ertasi haqida katta orzular qilyapmizmi, ularni yoshligidan ana shu kelajakka tayyorlab borishimiz kerak.

«Bolanzigga qancha vaqt ajratasiz?»

– Sinfinda ana shunday tajovuzkor, jahldor, urushqoq bolalar bo'lardi, – deydi faxriy o'qituvchi Gulnora Do'stmurodova. – Qachon ularning ota-onasi bilan bog'lanib,



bolasining xulqi haqida gapirsam, «O'quvchining xulqi bilan maktab, o'qituvchilar shug'ullanishi kerak. O'qituvchilar bunga mas'ul!» deyishardi. Shu gaplardan ham ma'lum, aksariyat ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tibor bermay, barcha mas'uliyatni maktabga, o'qituvchilarga tashlab qo'yyapti.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, keyingi o'n yilda ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi uchun ajratayotgan vaqti tobora qisqarib borayotgan ekan. Olimlar buning sababi ota-onalarning ishga haddan ortiq ko'p vaqt ajratayotgani ekanini ta'kidlashmoqda. Xalqimizda: «Qush inida ko'rganini qiladi» degan naql bor. Bola ongi shu qadar beg'uborki, unga nimani uqtirsak, qalbiga qanday g'oyani singdirsak, u shunga qarab, hayotda o'z yo'lini tanlaydi. Ammo bugungi kun ota-onalari hamma narsani moddiyat bilan bog'lab, o'z nuridiydalarining kelajagini barbod



qilayotganini yoxud bir niholning to'g'ri o'sishiga bo'lgan mas'uliyat hissini unutib qo'yishayotganini qanday tushunish mumkin?

Maktabdagi faoliyatim davomida har xil sharoit va muhitda katta bo'layotgan, turli fe'l-atvorga ega bo'lgan minglab bolalarni o'qitdim. Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib aytaman, o'qituvchilarning (men tanigan va bilgan) hammasi bolalarga yaxshi bilim beribgina qolmay, har bir o'quvchining tarbiyasi, xarakteri bilan ishlashga harakat qilishadi. Lekin harakat faqat bir tomonlama bo'lmasligi kerak. O'quvchi kunning faqat 5–6 soatinigina maktabda o'tkazadi, qolgan vaqti uyida kechadi. O'qituvchi bola bilan shug'ul-



lansa-yu, ota-ona uzzukun ishda bo'lib, farzandining kun davomida nima qilganidan xabarsiz, uni o'z holi-ga tashlab qo'ysa, nazoratsiz qoldirsa, natija kutilganidek bo'lmasligi tabiiy emasmi?! Harakat va tarbiya ikki tomonlama bo'lsagina natija bo'ladi.

Agressiv kayfiyat yosharganmi?!

Hech e'tibor berganmisiz, bugun hamma asabiy. Otalar, onalar, buvilar, bobolar... To'g'ri, ularni turmushidagi qiyinchiliklar, maishiy muammolar charchatgandir. Unday bo'lsa, bolalar nega asabiy? Biz asosan o'tish davridagi o'smirlarning jahldor va o'zgaruvchan kayfiyatga tushib qolganini ko'rganmiz. Ammo bugun bu agressiv kayfiyat ancha yoshargan. Bugun hatto siz 3–4 yoshli bolaning ham asabiylashishiga guvoh bo'lasiz. Bolalarning aksariyati, hatto 3–4 yoshdagilari ham telefonga «sho'ng'ib ketgan». Atrofdagilarga, voqealarga befarq, virtual hayotda

yashaydi, yutsa quvonadi, yutqizsa asabiylashadi, hatto yig'lab, jazavaga tushadi, telefonni uloqtiradi...

Bugun bizning eng katta yutug'imiz ham, ashaddiy dushmanimiz ham telefon va turli gadgetlar bo'lib qolgan. Bolalarning xarakteri kuchsiz. Eng kichik muvaffaqiyatsizlik ham ularni jazavaga, depressiyaga tushirib qo'yishga qodir bo'lib qoldi. Ularning bu holatga kelishiga esa, afsuski, o'zimiz – kattalar, ota-onalar sababchimiz. Axir farzandimiz jim o'tirsin, shovqin solmasin, ishlarimga xalaqit bermasin, deb hali go'dakligidan ularning qo'lga telefon, planshetlarni tutqizgan o'zimiz emasmi?!

Telefondan qanday ajratish kerak?

Xo'sh, muammoning sababi telefon ekan, endi bolani undan qanday ajratish kerak?! Bu borada bizdan talab etiladigan eng muhim narsa – e'tibor va nazorat. Kattalarning bolaga bo'lgan e'tibori uni ota-onasiga yaqinlashtiradi, realikka qaytaradi. Ana undan so'ng telefondan uzoqlashtirish jarayonlariga ko'chsa bo'ladi. To'g'ri, bu oson bo'lmaydi, ammo uddalab bo'lmaydigan vazifa ham emas. Bugun ana shunday muammo bilan yonma-yon turgan ota-onalarga ruhshunoslar, avvalo, bolaning kun tartibini ishlab chiqishni tavsiya qilishmoqda. Unda bir kunda qilinishi kerak bo'lgan hamma vazifalar joy olgan bo'lishi kerak: ertalab uyqudan turishidan tortib, o'yin vaqti, ovqatlanishi, to'garaklarga borish va uxlashigacha. Bolani bir kunda, shunchaki telefondan uzib olib bo'lmaydi. U siz tuzgan tartibga tushib olgach, virtual o'yin vaqti qisqartirib boriladi. Unutmang, har qanday maqsadga sekinlik bilan erishiladi.

Xulosa o'rnida

E'tibor bergan bo'lsangiz, farzand bilan bog'liq xunuk holatlar uchrab qolsa, ko'pchiligimiz «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan naqlni eslab qolamiz. Bu bilan holatga faqat men (ota yoki ona) aybdor emasmiz, bolani tarbiya qilish hammaning vazifasi edi, degandek bo'lamiz. Ammo shu yerda bir «ammo»si bor. Bolanzigga o'qituvchisi tanbeh bersa ham, shunday deya olasizmi? Afsuski, yo'q. O'qituvchi tanbeh bersa, «Mening bolamga bironing qattiq gapirishga haqqi yo'q!» deb, o'sha o'qituvchini «olib borib» kelamiz.

Bir narsani hech qachon unutmasligimiz kerak, farzand, avvalo, bizniki, ularning tarbiyasi ham, eng birinchi navbatda, o'zimizga kerak. Shunday ekan, mas'uliyat ham bizda bo'lishi lozim emasmi?! Siz bunga nima deysiz?!

Dildora BOZOROVA,
jurnalist.



Бир жиноят тафсилоти

Тунги соат 3:45да Жиззах вилояти ИИБ Навбатчилик қисмининг «102» қисқа рақамига қўнғироқ қилган эркак бир соатча илгари 3 киши унинг қорнига пичоқ тираб, 350 минг сўм пули ва уяли алоқа воситасини тортиб олганини билдирди. Тергов-тезкор гуруҳи жиноят жойига – «Тошкент – Термиз» М-39 йўлининг Пахтакор тумани ҳудудидан ўтган қисмига йўл олди.

Шу чоғ навбатчилик қисмига яна бир қўнғироқ бўлди. Бу гал «Тошкент – Термиз» М-39 йўлининг 968-километрида тўхтаб турган «Газель» русумли юк машинаси эгаси босқинчилар ҳужумига учрагани. Маълум бўлишича, қонунбузарлар ҳайдовчидан автоулов эшигини очишни талаб қилишган. Рад жавоби олишгач, юк машинасининг ён ойнасини синдириб, ҳайдовчини ташқарига судраб чиқиб, бошига темир бўлаги билан уришган. Сўнг жабрланувчига тегишли уяли алоқа воситаси, 200 минг сўмни олиб, кўздан ғойиб бўлишган.

Ички ишлар органлари ходимлари талончилар ҳужумига учраган Шароф Рашидов туманининг «Тоқчилик» маҳалласида яшовчи А.Ғ. ҳамда Бухоро вилоятининг Қорақўл туманида яшайдиган «Газель» ҳайдовчиси Л.О.дан жиноятчиларнинг кўриниши, ўзларини тутиши, алоҳида белгилари,

шеваси, боринги, улар шахсига аниқлик киритиши мумкин бўлган барча маълумотларни олишга ҳаракат қилдилар. Ҳар икки жабрланувчи йўл ёқасида оқ «Cobalt»ни кўрганини билдирди. Ана шу маълумот тезкор ходимларнинг кейинги ҳаракатларини белгилади. Хусусан, кузатув камералари тасвирлари ўрганилиб, воқеалар рўй берган вақт оралиғида М-39 йўлида ҳаракатланган «Cobalt» ҳайдовчиларига эътибор қаратилди. Мулоқотлар чоғида шубҳа остига олинганлардан бири ўз номидаги автомашинани Сирдарё вилояти Янгиер шаҳри Абдурахмон Жомий номидаги маҳаллада яшовчи З.Ҳ.га пулини бўлиб тўлаш шарти билан берган-

лигини баён қилди.

Қонун ҳимоячилари З.Ҳ.га оид маълумотларни ўрганиб, босқинчилардан бири у бўлиши мумкин, деган хулосага келдилар. Чунки бу кимса муқаддам безорилик, ўғрилик, қасддан бадан-

дан эса пичоқ, қўлқоп, тиббий ниқоб, 400 АҚШ доллари, бир талай озиқ-овқат маҳсулотлари ҳамда қора шапка топилди. Сал ўтиб, ана шу бош кийими босқинчилар яралаган «Газель» ҳайдовчисига тегишлилиги

ятининг Зарбдор туманидаги «Равот» маҳалласида жойлашган дўкон ойнасини синдириб, ноутбук, телевизор ва 1 миллион сўмлик озиқ-овқат маҳсулотларини ҳам ўғирлаганликларини тан олди. Худди шу йўл билан Сирдарё вилоятидаги дўкондан тикув машинаси ва озиқ-овқат маҳсулотлари олиб чиқиб кетилган.

Талончиларнинг тураржойлари тинтув қилиниши натижасида жиноий йўл билан қўлга киритилган ноутбук, телевизор, уяли алоқа воситаси, аёллар тақинчоғи, шунингдек, тўқмоқ ҳужжатлаштириб олинди. Айни вақтда кечаётган тергов жараёнида айбланувчиларнинг республикаимизнинг бошқа ҳудудларида содир этилган жиноятларга алоқадорлиги ўрганилмоқда.

Хуллас, жазолик ички ишлар органлари ходимлари томонидан ўтказилган моҳирона тезкор-қидирув тадбирлари ўлароқ, босқинчилик ва ўғриликни қасб қилган жиноий гуруҳ фаолиятига чек қўйилди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.

bydov: Oqarshiq

ЖИНОЙ ГУРУҲ ФАОЛИЯТИГА ЧЕК ҚЎЙИЛДИ

га оғир шикаст етказиш, қонунга хилоф равишда мамлакатдан чиқиш ва кириш жиноятларини содир этгани туфайли 5 марта судланганди. Қолаверса, Россия Федерациясида қотиллик қилгани учун жазога тортилган.

Суриштирув чоғида З.Ҳ. яшаш жойида эмаслиги маълум бўлди ва ички ишлар органлари ходимлари уни мамлакат бўйлаб қидира бошлади. Кўп ўтмай гумон қилинувчи икки шериги билан бирга Навоий вилоятида экани аниқланди. Кузатув натижалари асосида улар Бухоро вилояти Фиждудон тумани «Сайидкент» маҳалласида жойлашган ЙПХ масканида қўлга олинди. Улар ихтиёрида бўлган «Cobalt»-

аниқланди. Автоуловдан чиққан озиқ-овқат маҳсулотлари эса Навоий вилоятидаги дўкондан ўғирлангани тасдиқланди.

Жиноий гуруҳ аъзоларидан бири муқаддам ўғрилик, босқинчилик, вояга етмаган шахсни ғайриижтимоий хатти-ҳаракатларга жалб қилиш, контрабанда ҳамда гиёҳванд моддаларни сақлаш билан боғлиқ жиноятларга қўл ургани учун судланган, Сирдарё вилояти Янгиер шаҳрида яшовчи И.Қ. бўлиб чиқди. Гуруҳнинг учинчи аъзоси, Сирдарё вилояти Ховос туманида истиқомат қилувчи Ж.Ш. ҳам илгари ўғрилик қилгани учун жавобгарликка тортилган.

Тергов жараёнида айбланувчилар Жиззах вило-

ТАБИАТНИ АСРАЙМИЗ!

МАҚСАД – ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТНИ ЯХШИЛАШ

Юртимизда Оролбўйи минтақасининг экологик вазиятини яхшилаш бўйича мақсадли вазифалар белгиланган.

Орол денгизи қуриши билан боғлиқ инқирознинг асосий сабаби чўлланишнинг кучайиши ҳисобланиб, унинг салбий оқибатларини бартараф этиш мақсадида 2024 йили тузли ва қумли шамоллар ҳосил бўладиган энг заиф жойларда яшил

майдонлар яратиш, жами 150–200 минг гектар майдонда ўрмонзорлар барпо қилиш, саксовул, черкез, қандим каби чўл ўсимликларини етиштириш режалаштирилган. Ўтган 5 йил давомида Орол денгизининг қуриган тубида 1 миллион 730 минг гектар ўрмонзор барпо этилган.

Эндиликда Орол денгизининг қуриган туби ҳудудида қарийб



600 минг гектарлик майдонда ўрмонзорлар барпо этиш мақсадида биринчи марта тупроқни мустаҳкамловчи янги турдаги ноёб ўсимлик *Arundo donax* экиш кўзда тутилган. Ҳозирда у тажриба майдонида синовдан ўтказилляпти. Бу борадаги ишлар муваффақиятли ўтса, илдиз сўргичлари тез униб чиқадиган мазкур ўсимлик кейинги 1–2 йил ичида Оролнинг барча ҳудудларига экилади.

Ҳозирги кунда экилган *Arundo*

donax бир ойлик бўлиб, қурғоқчиликка жуда чидамли ва оғир чўл ша-роитида ҳам 4 метргача ўса олади. Уни экиш технологияси ҳам ноёб бўлиб, экиш жараёнида кўчатлар ўрнига илдиз куртаклари ўтқазил-лади. Бу ўсимлик тузли шамоллар-нинг олдини олади, уни ем-хашак сифатида ишлатиш, поясидан эса қурилиш ва тўқимачилик соҳасида фойдаланиш мумкин.

Гулчеҳра АЗИМОВА
тайёрлади.



SALOMATLIK SABOQLARI

OFTOB URISHI

undan saqlanish qoidalari



Mana, yoz faslining jazirama kunlari ham boshlandi. Saraton chillasi yaqin. Bunday pallalarda esa quyosh nuri salomatligimiz uchun aks ta'sir etishi ma'lum.

Inson terisining kuyishi yoki oftob urishi ular orasida eng xavflisidir. Chunki oftob ko'zimiz ilg'ay olmaydigan infraqizil va ultrabinafsha nurlarini ham o'z ichiga oladi. Ularning me'yordan ortig'i esa organizm uchun ziyon. Xususan, ultrabinafsha nurlarining davomiy ta'siri dastavval kataraktaga, bora-bora ko'z nurlari butunlay yo'qolishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, ayni shu omil tufayli teri saratonining yuzaga kelish xavfi ham mavjud.

Qolaversa, oftob urishi natijasida bosh miya faoliyatining buzilishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda qizigan tana o'zini yetarli darajada sovita olmay qoladi. Oqibatda haddan ziyod ko'p terlash tufayli qon aylanish tizimi

izdan chiqadi. Ya'ni, tomirlar kengayib, tanada qon aylanish jarayoni sekinlashadi. Bu bosh miya faoliyati uchun zararlidir.

Oftob urishi bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qayt qilish, holsizlik kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Namlik darajasi yuqori atmosferada esa ushbu alomatlar yanada kuchayishi mumkin. Masalan, yurak urishi va nafas olish tezlashishi, ko'z qorachig'i kengayishi, qusish, kuchli bosh og'rig'i, quloq bitishi, chayqalib yurish kuzatiladi. Vaqti-vaqti bilan hushdan ketish, burundan qon kelishi, tana harorati 39–40 darajagacha ko'tarilishi ham shunday simptomlar sirasidan. Og'ir holatlarda esa yuzlar qizarib, keyin oq

va ko'kimtir tusga kiradi, mushaklar tortishadi. Bemorda alahsirash boshlanadi. Tana harorati 41–42 darajagacha yuqorilab, chuqur behushlik holati rivojlanadi. Eng ayanchlisi, og'ir darajadagi oftob urishi 20–30 foiz holatlarda o'lim bilan yakun topadi.

Oftob urishi 3 xil: yengil, o'rta va og'ir darajada bo'ladi.

Yengil darajasida tananing qizarishi, bosh og'rig'i, umumiy holsizlik holatlari kuzatiladi.

O'rta darajasida tananing qizarishi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, umumiy holsizlik, mushaklarda og'riq, yurak-qon tomir tizimida o'zgarishlar, organizmda suvsizlanish holatlari kuzatiladi.

Og'ir darajasida tananing qizarishi va terida pufakchalar paydo bo'lishi, behushlik, birinchi tibbiy yordam ko'rsatilmagan hollarda – komaga tushish holatlari kuzatiladi.

Oftob urishidan saqlanish uchun nimalarga e'tibor berish lozim:

- kunning issiq paytida uzoq vaqt quyosh nuri ostida mehnat qilishdan, yurishdan imkoni boricha saqlanish;
- tanani chiniqtirish maqsadida quyosh vannalaridan to'g'ri foydalanish, ya'ni ertalabki quyosh vannalarini qabul qilish maqsadga muvofiq;
- ko'p terlash natijasida organizmda suv bilan birga kerakli mineral moddalar ham chiqib ketishi kuzatiladi. Suvsizlanish hamda

mineral tuzlar o'rnini qoplash maqsadida ko'proq salqin ichimliklar (mineral suvlar, sovuq choy, qaynatilgan suv va boshq.) iching;

- dala sharoitida xizmat olib borayotgan xodimlarga salqin joylarni ko'paytirish, ichki tartib-qoidalardan kelib chiqqan holda, xizmat soatlarini kamaytirish lozim;
- kunning issiq paytlarida tanani sovitish maqsadida nam sochiq bilan artish va muz xaltalar qo'yish maqsadga muvofiq;
- quyosh nuri ko'p tushadigan xizmat xonalariga ventilyator yoki konditsionerlar o'rnatish.

Sardorbek HOMIDOV,
Farg'ona viloyati IIB
Tibbiyot bo'limi SENM
boshlig'i, leytenant.



YOZDA SPORT BILAN TO'G'RI SHUG'ULLANING

Jazirama issiqda yurak-qon tomir kasalliklari asoratlari zo'rayishi, infarkt va insult holatlari yuzaga kelishi xavfi ortadi. Issiq havo ta'sirida qon quyuladi, organizmdagi suyuqlik ter orqali chiqib ketib, tanada suv me'yor buzilishi kuzatiladi,

trombozlar rivojlanishi xavfi kuchayadi. Shuningdek, bunday paytda oftob urishi ehtimoli ham yuqori bo'ladi. Ayniqsa, gipertoniya, yurakning ishemik xastaligi bilan og'rikan kishilar ehtiyot bo'lishi lozim, ularga nafaqat sport bilan shug'ulla-

nish, balki jaziramada ko'chaga chiqish tavsiya etilmaydi.

Kuydiruvchi oftob nurlari ostida sport bilan shug'ullanish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jismoniy mashg'ulotlar uchun 22–23 daraja eng qulay harorat hisoblanadi. Agar termometr ustuni 25 darajadan ko'tarilsa, ko'chadagi mashg'ulotlarni kunning salqinroq vaqtiga ko'chirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bu ertalabki va kechki vaqt (faqat soat 21–22 dan kech emas) bo'lishi mumkin.

O'ta issiq ob-havo sharoitida yaxshilab himoyalangan, qulay, och rangli va yengil kiyimda ko'chaga chiqish, boshni jazirama oftob nuridan asrash zarur. Issiq kunlarda har qanday sport mashqlarini sportzalga ko'chirib, istalgan vaqtda tanani chiniqtirish mumkin. Tabiiyki, agar gap yaxshi jihozlangan sport zali haqida ketayotgan bo'lsa – unda, albatta, sifatli ventilyatsiya tizimi mavjud bo'lish lozim. Agar bino ichida dim va issiq harorat kuza-tilsa, bu ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

KO'ZLARNI QANDAY HIMOYA QILISH KERAK?

- Quyosh nuridan himoyalovchi ko'zoynaklar va bosh kiyim kiyib yuring.

- Uzoq vaqt quyosh yoki yorug' muhitda bo'lganda, ko'zlarni dam oldirish uchun muntazam tanaffus qiling.

- Doimiy ravishda ekranlar (kompyuter, telefon, gadjet) oldida o'tirishdan saqlanish. Har 20 daqiqada 20 soniya davomida 6 metr uzoqlikka qarang.

- Qo'llarni muntazam yuvish va yuzga tegmaslikka harakat qilish orqali ko'zlarni infeksiyalardan himoya qiling.

- Yoz faslida ko'proq suv ichish ko'zlarni qurib qolishdan asraydi.

- Quyosh nuri kuchli ta'sirga ega bo'lgan 10:00 dan 16:00 gacha vaqt oralig'ida ochiq havoda ko'p vaqt o'tkazmaslikka harakat qiling.



По маршрутам духовности

Сотрудники подразделений УООП СОБ Наманганского областного УВД посетили достопримечательности Туракурганского района.



Первым делом они побывали в городище Ахсикент, основанном в III веке до н. э. и являвшемся столицей Ферганского государства, крупным городом на Великом шелковом пути. В Ахсикенте имелась подземная система подачи воды, поэтому город мог выдержать долгосрочную осаду. В свое время здесь получили развитие стекольное, гончарное, кузнечное дело.

Ахсикент – крупнейший археологический памятник Ферганской долины. Учеными проведены раскопки и изучены сохранившиеся элемен-

ты кузницы, бани X-XIII веков, помещения для солдат, мечети, оборонительных стен, резиденции правителя – Арк. Прославленные дамас-

ские клинки изготавливались именно здесь.

– Сейчас исследователи изучают монеты, найденные в Ахсикенте, изображения, надписи на них, – говорит научный сотрудник Рустам Мамадиев.

Затем состоялось посещение мемориального комплекса, созданного по инициативе главы государства в честь Искохжона Ибрата.

**Файзулло
ХАКИМОВ,**
подполковник.

Наманганская область.



MUNAJJIMLAR BASHORATI (24-iyundan – 30-iyungacha)



Qo'y. Hafta boshida ish faoliyatingizda muayyan muvaffaqiyatlar kuzatilishi kutilmoqda. Yaqinlaringiz bilan muloqot qilishda xushmuomalalikni unutmang, aks holda kutilmagan noo'rin tortishuvlar kelib chiqadi. Salbiy hissiyotlar salomatlikka aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Buzoq. Ichki sezish hissingizning ogohlantirishlariga bee'tibor bo'lmang. Qat'iyat va maqsad sari intilish tufayli ishda, moliyaviy masalalarda va shaxsiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishasiz.



Egizaklar. Odamlar bilan munosabat o'rnatishda va ish joyingizda faolroq bo'ling. Har jabhada aql-zakovat va yaxshi did egasi ekaningizni isbotlang. Ushbu hafta kutilmagan pul tushumi kayfiyatingizni ko'taradi.



Qisqichbaqa. Bu hafta o'ylamay ish qilishdan qoching. Chunki shu kunlarda hayotingizda ikkilanish, ishonchsizlik, yolg'izlik, atrofda g'irg'irlik sizni noto'g'ri tushunishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Unutmang, sizga ushbu vaziyatdan chiqib ketishga faqat iroda kuchi va sog'lom tafakkur yordam bera oladi.



Arslon. Ushbu davrda jamiyatdagi mavqeyingiz ortishi, shuningdek, hamkasblar va yaqin kishilar bilan xayrli va uyg'un munosabatlarning rivojlanishi kutilmoqda. Hafta so'ngida dam olish, sayohat qilish yoki ko'ngilochar maskanlarga borish foydadan xoli bo'lmaydi.



Parizod. Sizdan kasbiy soha va biznesda o'z ustida ishlash talab etiladi. Zo'r g'ayrat va ishtiyoq bilan mehnat qilib, ijodiy g'oyalarni hayotga tatbiq eting. Uy-ro'zg'or ishlarini keyinga qoldirmang. Nima bilan shug'ullansangiz ham har qanday olingan natijadan quvonishga harakat qiling.



Tarozi. Hafta boshi ish jarayonlari – turli muzokaralar, uchrashuvlar, foydali aloqalar o'rnatish uchun qulay davr. Chorshanba va payshanba kunlari shovqinli va quvnoq davralardan uzoq turing. Yakshanbani ruhan yengillashish va miriqib dam olishga bag'ishlagan ma'qul.



Chayon. Bu haftani yangi ishlarni rejalashtirish uchun sarflang. Imkoniyatlaringizdan kelib chiqib, muhtojlarga xayr-ehson qiling, hamdardlik va marhamat ko'rsating. Ish faoliyatingiz bilan xotirjam shug'ullaning, oila o'chog'idagi alangani maromida ushlab turing.



O'qotar. Haftaning birinchi yarmida og'ir yoki davomli mehnatdan imkon qadar yiroq turing. Chunki bu vaqtda salomatligingiz pand berishi mumkin. Keyingi kunlar moliyaviy daromad va ish faoliyatidagi o'sishni va'da qilmoqda.



Tog' echkisi. Ko'proq izlanishda bo'ling, imkon qadar takomillashish va rivojlanish sari olg'a qadam tashlang. Hamkasblar orasidan munosib do'stlarni topishga intiling, shunda ishdagi ko'pgina masalalarning hal etilishi muvaffaqiyatli kechadi.



Qovg'a. Hamkasblar va oila a'zolaringiz bilan o'zaro munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Istasangiz ham, istamasangiz ham xushmuomala va nazokatli bo'lishingizga to'g'ri keladi. Shu tariqa siz sabrsizlik va qahr-g'azab namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymay, mazkur vaziyatdan yaxshilik bilan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Baliq. Asosiy vazifa va majburiyatlaringizni unutib qo'ymang. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun yanada faol harakat qiling. Siz uchun seshanba eng samarali kun bo'lib, foydali va istiqbolli ishlarga qo'l urasiz. Hafta so'ngida rejada bo'lmagan xarajatlar kuzatilishi mumkin.

«CHASHMAI AYYUB» MAQBARALARI

Mamlakatimizda hazrati Ayyub alayhissalomning nomi bilan bog'liq uchta noyob yodgorlik mavjud. Ulardan biri Qarshi shahrida, ikkinchisi Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi Xargo'sh va Xayriobod qishloqlari kesishuvida joylashgan, uchinchi va eng mashhuri Buxoro shahridagi «Chashmai Ayyub» maqbarasidir. Bu maqbara masjid va uning ichidagi quduqdan iborat bo'lib, XII–XVI asrlarda barpo etilgan.



Buxoro markazidagi «Chashmai Ayyub» maqbarasi qoraxoniylar sulolasiga mansub hukmdor Mansur Arslonxon davrida, XII asr boshlarida Registon maydonidagi ulkan Minorai Kalon bilan bir vaqtda qurilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, qurilish XIII asrdagi mo'g'ullar bosqinidan so'ng, Amir Temur hamda uning vorislari davrida qurib bitkazilgan va Buxoroda kam uchraydigan xorazmcha konussimon gumbazga ega. Qolaversa, o'rta asrlarning o'zida bir necha bor qayta qurilib, rekonstruksiya qilingan.

Ziyoratgoh to'rtburchak shaklda bo'lib, g'arbdan sharqqa qarab joylashtirilgan, har biri o'ziga xos gumbazlar bilan o'ralgan to'rtta xonadan iborat. Eng qadimgi xona quduq nomi bilan mashhur bo'lib, uning ikki tomonida ziyoratchilarga qulayliklar yaratilgan. 1379-yilda Amir Temur hukmdorligi davrida, uning buyrug'iga ko'ra, baland gumbazli va minorali katta xona qurilgan. Binoning ichki qismida vaqt o'tishi bilan saqlanib qolgan qadimiy elementlar mavjud.

«Chashmai Ayyub» maqbarasi qabriston sifatida ham e'zozlanadi. Bu binoning eng qadimgi qismi XII asrga to'g'ri keladi. Bu joyda tosh ustida 1380-yilga oid yozuv hanuzgacha saqlanib qolgan. XVI asrga oid yozuvlarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, bir necha maqbaralar mavjud bo'lib, ulardan eng qadimiysi 1022-yilda shu yerda dafn etilgan mashhur dinshunos va muhaddis Xoja Hofiz Gunjariy qabridir.

Vobkent tumanidagi «Chashmai Ayyub» maqbarasi Buxorodan 30 kilometr shimoli-sharqda joylashgan. Ushbu maqbarada milodiy 1017-yilda vafot etgan hadisshunos olim Abu Sa'd al-Xarjushiy dafn etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu maqbara masjid va darveshlar xonaqosi vazifasini o'tagan. Yod-

gorlikning qabristonda qurilganligi uning maqbara vazifasini bajarganini bildirsa, savdo yo'li ustida joylashganligi undan xonaqoh sifatida foydalanilganidan darak beradi. Maqbara asrlar davomida qanchadan-qancha talon-toroj va to's-to'polonlarni boshdan kechirgan. Bu o'tgan tarixiy davr «Chashmai Ayyub»ning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Yodgorlikning faqat portal qismi hamda unga tutash devorning bir bo'lari bizgacha yetib kelgan, xolos.

Maqbaraning yuqori peshayvonida rangli keramikadan terilgan svastikalarning tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Svastika an'anaviy tarzda solar belgi, ya'ni quyosh ramzi sanaladi. Ehtimol Buxoro va Samarqand islom arxitekturasida qo'llanayotgan svastika bu o'lkada Kushonlar hukmdorligi davrida, ya'ni miloddan oldingi III–II asrlarda keng tarqalgan zardushtiylik yoki hatto buddaviylikning madaniy merosi sifatida qolgan bo'lishi mumkin. Agar bu taxminlar rost bo'lib chiqsa, maqbara xususida hali ko'plab izlanishlar olib boriladi.

Mirzoqul AHADOV tayyorladi.

«ZAKOVAT» SAVOLLARI



ZAKOVAT

Hayotiy jumboq. Hammaning uyida ertalabdan kechgacha jaranglab turadigan kuy bor. Turli ijrochi tomonidan qayta-qayta o'sha kuy chalinadi. U kuy uzog'i 20 soniya chalinadi. Bir ijrochi o'sha bitta kuyni qayta-qayta chalishi mumkin.

Savol: bu kuyni ijrochilar nima maqsadda chalishadi?

U inson tanasidagi eng nozik organlardan biri. Aynan shu sababli ham bir o'zbek iborasida «O'ta ehtiyot qilish» ma'nosini anglatishda undan foydalaniladi. Xonanda Otash Hijron ham shu nomda qo'shiq yaratgan.

Savol: gap nima haqida ketyapti?

Ushbu savollarning javobini gazeta sahifalaridan topasiz.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №1933.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50347 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarsmiy



www.facebook.com/postdauz